

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 06.08.2025 yildagi 498-son

Kuchga kirish sanasi

07.11.2025

Qo'shimcha axborot

Ulashish

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING QARORI

O'RTA MAXSUS, KASBIY, OLIY VA OLIY TA'LIMDAN KEYINGI TA'LIM, SHUNINGDEK, KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH TASHKILOTLARINI KOMPLEKS HAMDA MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH TIZIMINI JORIY ETISH TO'G'RISIDA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim sifatini ta'minlash va ta'lim xizmatlari ko'rsatish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2025-yil 5-maydagi PF-76-son [Farmoni](#) ijrosini ta'minlash hamda o'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks va maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimining normativ-huquqiy bazasini takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Quyidagilar:

a) O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni [58-moddasiga](#) muvofiq o'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'lim va oliy ta'limdan keyingi ta'limni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari, bitiruvchilarga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ta'lim to'g'risidagi hujjatlarni beruvchi, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash bo'yicha davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari davlat ta'lim standartlariga, davlat ta'lim talablariga, shuningdek, ta'lim dasturlariga muvofiqlik jihatidan kompleks va maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazilishi belgilangani;

b) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim sifatini ta'minlash va ta'lim xizmatlari ko'rsatish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2025-yil 5-maydagi PF-76-son [Farmoniga](#) muvofiq:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzurida Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi (keyingi o'rinlarda — Agentlik) tashkil etilgani;

Agentlik idoraviy mansubligi va tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar, o'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini (keyingi o'rinlarda — ta'lim tashkilotlari) kompleks va maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishi hamda ta'lim tashkilotlarini xavfni tahlil qilish asosida navbatdan tashqari o'rganishi;

kompleks davlat akkreditatsiyasi natijalariga ko'ra muayyan ta'lim dasturida aniqlangan qo'pol kamchiliklar belgilangan muddatda bartaraf etilmagan taqdirda, ushbu ta'lim dasturi bo'yicha o'quv faoliyatini davom ettirish va qabulni amalga oshirishga yo'l qo'yilmasligi belgilanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilarni nazarda tutuvchi O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom [1-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin:

ta'lim tashkilotlarini kompleks va maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish bosqichlari va tartibi;

ta'lim tashkilotlarini davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishda ichki va tashqi baholashni tashkil qilish;

ta'lim tashkilotlarida xavfni tahlil qilish va monitoring o'tkazish orqali ta'lim sifati samaradorligini oshirish hamda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf qilish jarayonlarini tashkil etish.

3. Belgilansinki:

yangi tashkil etilgan ta'lim tashkilotlari va maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tgan ta'lim dasturlari birinchi kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tkazilgunga qadar davlat akkreditatsiyasidan o'tgan hisoblanadi;

amaldagi ta'lim dasturlari ta'lim tashkilotining murojaatiga ko'ra navbatdagi kompleks davlat akkreditatsiyasiga qadar yoki mazkur tashkilotni kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish davrida maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkaziladi;

ta'lim tashkilotlarini kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish davrida nufuzli xalqaro reyting tashkilotlarining sohaviy ro'yxatida birinchi 300 talikdan o'rin olgan yoki O'zbekiston Respublikasida tan olinadigan xalqaro, xorijiy va nodavlat akkreditatsiya tashkilotlari reyestriga kiritilgan xalqaro akkreditatsiya tashkilotlari tomonidan xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazilgan ta'lim dasturlari tegishli mezonlar bo'yicha ijobiy baholangan deb hisoblanadi.

4. Ta'lim tashkilotlari tarkibida ularning belgilangan shtatlari doirasida ta'lim sifatini ta'minlash bo'limlari tashkil etilsin. Bunda:

oliy ta'lim tashkilotlarining ta'lim sifatini ta'minlash bo'limlari kamida 3 nafar (oylik ish haqi dekan lavozimiga tenglashtirilgan bo'lim boshlig'i va dekan o'rinbosari lavozimiga tenglashtirilgan 2 nafar bosh mutaxassis) xodimdan, o'rta maxsus va kasbiy ta'lim tashkilotlarining ta'lim sifatini ta'minlash bo'limi (oylik ish haqi direktor o'rinbosari lavozimiga tenglashtirilgan bosh mutaxassis) 1 nafar xodimdan iborat bo'ladi;

bo'lim (mutaxassis)ga ta'lim tashkilotining kadrlar tayyorlash sifatini ta'minlash bo'yicha ichki baholashni tashkil etish, ta'lim tashkilotini davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishga tayyorlash, ta'lim sifatini doimiy monitoring qilib borish orqali unga ta'sir etuvchi omillar to'g'risidagi ma'lumotlarni ta'lim tashkiloti rahbariga hamda Agentlikka taqdim etib borish vazifalari yuklatiladi.

5. Agentlik Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Raqamli texnologiyalar vazirligi bilan birgalikda 2025-yil yakuniga qadar Oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan "Akkreditatsiya" platformasini ishlab chiqib, ishga tushirish hamda vazirlik va idoralarning mavjud axborot tizimlariga integratsiya qilish choralarini ko'rsin.

6. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi:

kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tmagan va belgilangan muddatlarda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etmagan ta'lim tashkilotlarining faoliyatini tugatish (litsenziyasini bekor qilish) yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga asoslangan takliflar kiritib borsin;

faoliyatini tugatish, litsenziyasini bekor qilish va ta'lim dasturini yopish bo'yicha qaror qabul qilingan ta'lim tashkilotlari talaba va o'quvchilarining o'qishini davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarining mos va turdosh ta'lim yo'nalishlari, kasb va mutaxassisliklariga belgilangan tartibda ko'chirish choralarini ko'rsin.

7. Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 22-maydagi 304-son [qaroriga 2-ilovaga](#) muvofiq o'zgartirishlar kiritilsin.

8. O'zbekiston Respublikasi Hukumatining [3-ilovaga](#) muvofiq ayrim qarorlari o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

9. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda o'zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni ikki oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

10. Mazkur qaror rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran uch oy o'tgach kuchga kiradi.

11. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri K.A. Sharipov hamda Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi direktori A.Yu. Xudaykulov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV

Toshkent sh.,
2025-yil 6-avgust,
498-son

Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 6-
avgustdagi 498-son qaroriga
1-ILOVA

O'рта maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida**NIZOM****1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Nizom o'рта maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha faoliyat yurituvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari (keyingi o'rinlarda — ta'lim tashkilotlari)ni idoraviy mansubligi va tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar, kompleks va maxsus davlat akkreditatsiyasidan (keyingi o'rinlarda — davlat akkreditatsiyasi) o'tkazish tartibini belgilaydi.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi (keyingi o'rinlarda — Agentlik) davlat akkreditatsiyasini o'tkazish bo'yicha maxsus vakolatli organ hisoblanadi.

3. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

akkreditatsiya sertifikat — davlat akkreditatsiyasidan muvaffaqiyatli o'tgan ta'lim tashkilot (dastur)lariga beriladigan hujjat;

akkreditatsiya tashkilotlari — Agentlik tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyatini amalga oshirishga ruxsat berilgan va akkreditatsiya tashkilotlarining reyestriga kiritilgan xalqaro, xorijiy va nodavlat akkreditatsiya tashkilotlari;

akkreditatsiya tashkilotlari reyestri — O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyatini amalga oshirish huquqi berilgan akkreditatsiya tashkilotlarining Agentlik tomonidan yuritiladigan ro'yxati va ular haqidagi ma'lumotlardan iborat yagona ma'lumotlar banki;

ichki (o'zini o'zi) baholash — ta'lim tashkilotining belgilangan ichki sifatni ta'minlash mezonlari asosida o'z faoliyati samaradorligini kuzatishi, tahlil qilishi, baholashi va uni takomillashtirish choralarini ko'rish jarayoni;

kompleks davlat akkreditatsiyasi — o'рта maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlashni va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarini tashqi baholash natijalariga asoslangan jarayon;

maxsus davlat akkreditatsiyasi — o'рта maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon;

ta'lim dasturi — tegishli kasblar, ta'lim yo'nalishlari, mutaxassisliklar, ixtisosliklar, kurslar bo'yicha davlat ta'lim standartlari (talablari) va kasbiy standartlarga muvofiq kompetensiya va o'quv natijalari, ta'lim mazmuni, hajmi va baholash talablarini belgilovchi o'quv-me'yoriy hujjat;

tashqi baholash — ta'lim tashkiloti faoliyatini, kadrlar tayyorlash mazmuni, darajasi va sifatining davlat ta'lim standartlari (talablari) hamda akkreditatsiya mezonlariga muvofiqligini Agentlik tomonidan baholash jarayoni;

xalqaro akkreditatsiya — Agentlik tomonidan akkreditatsiya tashkilotlari reyestriga kiritilgan xalqaro ta'lim sifatini ta'minlash tarmoqlarining to'la huquqli a'zosi bo'lgan xalqaro akkreditatsiya tashkilotlari tomonidan ta'lim dasturlarini akkreditatsiyadan o'tkazish jarayoni.

4. Davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishda mustaqillik, ochiqlik, shaffoflik, xolislik, tenglik, izchillik, dalillarga asoslanganlik, davriylik va hisobdorlik tamoyillariga rioya qilinadi.

5. Davlat akkreditatsiyasining maqsadi ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatini ta'minlash va muntazam ravishda oshirish orqali ta'lim tashkiloti (dasturi)ning ishonchliligini rasman e'tirof etishdan iboratdir.

6. Davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

ta'lim sifatini ta'minlash va yanada yaxshilash bo'yicha rahbar xodimlarning mas'uliyati hamda hisobdorligini oshirish;

ta'lim sifatini oshirishni qo'llab-quvvatlash va sifat madaniyatini shakllantirishga har tomonlama ko'maklashish;

ta'lim oluvchilarni sifatsiz ta'lim xizmatlaridan himoya qilish;

ta'lim sifatiga qo'yiladigan minimal talablarga rioya etilishini ta'minlash;

mehnat bozori talablariga muvofiq va sifatli ta'lim xizmatlari ko'rsatilayotgani bo'yicha keng jamoatchilik o'rtasida ishonchni oshirish.

7. Quyidagilar davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishning asosiy obyektlari hisoblanadi:

maxsus davlat akkreditatsiyasida — kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yiladigan ta'lim dasturlari hamda ta'lim tashkilotlari tomonidan kadrlar tayyorlanayotgan va maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazilmagan ta'lim dasturlari;

kompleks davlat akkreditatsiyasida — ta'lim dasturlari bo'yicha bitiruvchilari mavjud bo'lgan ta'lim tashkilotlari.

8. Ta'lim tashkilotlari Agentlik tomonidan tasdiqlangan reja-jadval asosida har besh yilda kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tkaziladi.

Ta'lim tashkilotlari va ularning filiallari (fakultetlar), shuningdek, oliy ta'limdan keyingi ta'lim faoliyatini kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish ta'lim tashkiloti bilan bir vaqtda amalga oshiriladi.

Belgilangan muddatlar tugaganidan so'ng ta'lim tashkilotlari davlat akkreditatsiyasidan o'tkazilishi shart.

9. Ta'lim tashkilotlari ta'lim dasturlarining xalqaro miqyosda e'tirof etilishiga erishish maqsadida o'z tashabbusi bilan akkreditatsiya tashkilotlari reyestriga kiritilgan xalqaro akkreditatsiya tashkilotlaridan ta'lim dasturlarini xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazishi mumkin.

10. Ta'lim tashkiloti (dasturi)ni ichki va tashqi baholash ushbu Nizomga [1-ilovadagi](#) maxsus davlat akkreditatsiyasi yo'nalishlari va mezonlari va (yoki) mazkur Nizomga [2-ilovadagi](#) kompleks davlat akkreditatsiyasi yo'nalishlari va mezonlari asosida o'tkaziladi.

11. Ichki va tashqi baholash metodologiyasi Agentlik tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

12. Agentlik ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining bilim va ko'nikmasiga baho berish va ularning mehnat bozoriga integratsiyasini o'rganish uchun Umummilliy ish beruvchilar so'rovnomasini o'tkazib boradi.

13. Agentlik ta'lim tashkilotlari talaba (o'quvchi)larining ta'lim sifati bo'yicha fikrlarini o'rganishga qaratilgan doimiy Umummilliy talaba (o'quvchi)lar so'rovnomasini o'tkazadi.

2-bob. Ta'lim tashkilotlarini davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish

1-§. Davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish bosqichlari

14. Ta'lim tashkilotlarini davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish quyidagi bosqichlardan iborat:

1-bosqich — arizani rasmiylashtirish;

2-bosqich — ta'lim sifatini ichki baholash;

3-bosqich — ta'lim sifatini tashqi baholash;

4-bosqich — davlat akkreditatsiyasi bo'yicha yakuniy qaror qabul qilish.

15. Ta'lim sifatini ta'minlash va ehtimoliy xavflarni bartaraf etish maqsadida ta'lim tashkilotlarida xavfni tahlil qilish va monitoring jarayonlari amalga oshiriladi.

2-§. Davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish uchun arizani rasmiylashtirish

16. Davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish to'g'risida arizalar Agentlikning "Akkreditatsiya" platformasida elektron shaklda, zaruratga ko'ra, tasdiqlangan qog'oz shaklida qabul qilinadi. Unga ko'ra:

ta'lim dasturlarini maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish to'g'risida arizalar kelgusi o'quv yilida faoliyatini boshlash uchun har yili 1-oktabrdan kelgusi yilning 31-yanvarigacha qabul qilinadi. Ushbu muddatlardan tashqari boshqa muddatlarda maxsus davlat akkreditatsiyasi ta'lim tashkilotining murojaatiga asosan, Agentlik bilan tuziladigan shartnoma shartlari va oshirilgan to'lov asosida amalga oshiriladi;

ta'lim tashkilotlarini kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish to'g'risida arizalar ta'lim tashkilotining akkreditatsiyadan o'tganlik to'g'risidagi oxirgi sertifikatining muddati tugaydigan o'quv yilidan oldingi o'quv yilining 15-sentabriga qadar qabul qilinadi.

Ariza shakllari va ularga kiritiladigan ma'lumotlar Agentlik tomonidan belgilanadi.

17. Davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish to'g'risidagi arizaga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:
litsenziya/yuridik shaxsning guvohnoma nusxasi;
mavjud akkreditatsiya sertifikatini va hisoboti nusxasi (kompleks davlat akkreditatsiyasi uchun);
arizani ko'rib chiqish uchun belgilangan miqdordagi yig'implarni amalga oshirganlik to'g'risidagi ma'lumotnoma;

davlat akkreditatsiyasi jarayonlariga biriktirilgan mas'ul xodimning ma'lumotlari (ta'lim tashkiloti birinchi rahbari tomonidan tasdiqlangan holda).

18. Ariza va unga ilova qilinadigan hujjatlar to'liq taqdim etilgandan so'ng Agentlik tomonidan arizalar o'n besh ish kunida ko'rib chiqiladi.

19. Arizani ko'rib chiqishni rad etishga quyidagilar asos bo'ladi:

kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yilayotgan ta'lim yo'nalishlari, mutaxassisliklar, ixtisosliklar va kasblar milliy yoki xorijiy (xalqaro) klassifikatorda mavjud bo'lmaganda;

ushbu Nizomning **17-bandidagi** hujjatlar to'liq taqdim etilmaganda;

litsenziyada ko'rsatilgan ta'lim xizmati va turlariga mos bo'lmaganda;

talabgor tomonidan taqdim etilgan hujjatlarda yolg'on yoki noto'g'ri ma'lumotlarning mavjudligi aniqlanganda;

hujjatlarda aniqlangan kamchiliklar ta'lim tashkiloti tomonidan besh ish kunida bartaraf etilmaganda.

Boshqa asoslarga ko'ra arizani ko'rib chiqishni rad etishga yo'l qo'yilmaydi.

20. Ariza qabul qilinganidan so'ng o'n ish kuni ichida Agentlik va ta'lim tashkiloti o'rtasida davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish bo'yicha ikki tomonlama shartnoma tuziladi.

Ikki tomonlama shartnoma shakli, mazmuni va shartlari Agentlik tomonidan belgilanadi.

21. Davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishda ta'lim tashkilotining qonuniy vakili yoki ariza beruvchi quyidagilarga mas'ul hisoblanadi:

belgilangan talablar asosida ariza topshirish;

Agentlik va ta'lim tashkiloti o'rtasida shartnomani rasmiylashtirish;

yig'implarni belgilangan muddatlarda amalga oshirish;

ekspert komissiyasi (joyiga chiqqan holda) va Akkreditatsiya komissiyasi tomonidan qaror qabul qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni belgilangan muddatlarda taqdim qilish.

22. Agentlik shartnoma tuzilgan ta'lim tashkilotlarini tashqi baholashdan o'tkazish bo'yicha reja-jadvalni tasdiqlaydi va uni o'z rasmiy veb-saytida e'lon qiladi.

3-§. Ta'lim sifatini ichki baholash

23. Ta'lim tashkiloti ichki baholash natijasida shakllantirilgan hisobot va unga tegishli materiallarni elektron va (yoki) qog'oz shaklida tasdiqlangan holda quyidagi muddatlarda Agentlikka taqdim etadi:

maxsus davlat akkreditatsiyasi uchun tashqi baholash boshlanishidan kamida bir oy oldin;

kompleks davlat akkreditatsiyasi uchun tashqi baholash boshlanishidan kamida ikki oy oldin.

Bunda ichki baholash kompleks davlat akkreditatsiyasi o'tkaziladigan o'quv yilida o'tkazilishi hamda ta'lim tashkilotining oxirgi ikki yillik hamda davlat akkreditatsiyasidan o'tkaziladigan o'quv yilidagi faoliyati tahlili qamrab olinishi lozim.

24. Ichki baholashning vazifalari quyidagilardan iborat:

sifatni ta'minlash siklini to'liq joriy etish orqali ta'lim sifatini uzluksiz oshirish;

ta'lim tashkilotining ta'lim sifatini ta'minlashga bo'lgan javobgarligi va mas'uliyatini oshirish;

ta'lim xizmatlari sifatini tizimli ravishda baholash orqali tahlil qilish va rivojlantirish yo'nalishlarini belgilash;

ta'lim tashkiloti (dastur)ni tashqi baholashga tayyorlash;

ta'lim tashkilotida hisobdorlik va sifatni ta'minlash madaniyatini rag'batlantiruvchi ichki tizimni shakllantirish va rivojlantirish.

25. Ichki baholash hisoboti quyidagilarni o'z ichiga oladi:

ta'lim tashkiloti to'g'risida umumiy ma'lumot;

ta'lim tashkilotining har bir baholash yo'nalishlari va mezonlariga muvofiqligi bo'yicha tahlili;

har bir baholash yo'nalishi va mezoni kesimida ta'lim xizmatlari sifatining tizimli tahlili va ularni rivojlantirish yo'nalishlari;

aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha harakatlar rejasi;

asoslantiruvchi va tasdiqlovchi hujjatlar.

26. Agentlik ichki baholash hisobotini o'rganadi va undan tashqi baholash jarayonida foydalanadi.

27. Ichki baholashni samarali tashkil etish va hisobotda keltirilgan ma'lumotlarning haqqoniyligi uchun to'liq mas'uliyat ta'lim tashkilotining birinchi rahbari zimmasida bo'ladi.

Tashqi baholash jarayonida ichki baholash hisobotida haqqoniy bo'lmagan ma'lumotlar aniqlanishi, shuningdek, belgilangan muddatlarda hujjatlarning taqdim qilinmasligi yoki kamchiliklarning bartaraf etilmasligi davlat akkreditatsiyasidan o'tkazmaslik uchun asos bo'ladi.

28. Ta'lim tashkilotlari uchun davlat akkreditatsiyasi bo'yicha malaka oshirish kurslari va o'quv-seminarlari Agentlik tomonidan tashkil etiladi va ularni o'tkazish jadvali Agentlikning rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

4-§. Ta'lim sifatini tashqi baholash

29. Ta'lim sifatini tashqi baholash uchun Agentlik tomonidan ekspert komissiyalari tashkil etiladi. Ekspert komissiyalari kasblar, ta'lim yo'nalishlari, mutaxassisliklar, ixtisosliklar, kurslarning xususiyatidan kelib chiqqan holda tuziladi.

30. Ekspert komissiyalari tarkibi ta'lim tashkilotlarining pedagog va rahbar xodimlari, ilmiy-tadqiqot institutlarining yetakchi olimlari, respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining mas'ul xodimlari, tegishli ishlab chiqarish tashkilotlarining mutaxassislari, nodavlat notijorat tashkilotlar vakillari hamda talaba (o'quvchi)lar orasidan shakllantiriladi.

Ekspert komissiyalari tarkibiga xorijiy ekspertlar jalb etilishi mumkin.

Shaffoflikni ta'minlash maqsadida Agentlik ekspert komissiyasining tarkibi bo'yicha ta'lim tashkilotini xabardor qiladi.

31. Quyidagi hollarda ekspert komissiyalari tarkibiga o'zgartirish kiritilishi mumkin:

ta'lim tashkiloti tomonidan xabarnomani olgan kundan boshlab uch ish kuni ichida huquqiy kuchga ega bo'lgan aniq dalillar asosida ekspert komissiyalarining biror a'zosi bilan ziddiyatlar mavjudligi ma'lum qilinganida;

ekspert komissiyalarining biror a'zosi bilan davlat akkreditatsiyasidan o'tkazilayotgan ta'lim tashkiloti bilan bog'liq manfaatlar to'qnashuvi holatlari aniqlanganda.

32. Ekspertlarga qo'yiladigan talablar, ularning malakasini oshirish va tashqi baholash jarayoniga jalb etish tartibi Agentlik tomonidan belgilanadi.

33. Ekspertlarga Agentlik bilan tuziladigan haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomasi asosida haq to'lanadi.

34. Ekspert komissiyalarining vazifalari quyidagilardan iborat:

ichki baholash natijalari bo'yicha olingan ma'lumotlarni ekspertizadan o'tkazish hamda tashqi baholashni amalga oshirish;

ta'lim tashkilotidagi ta'lim sifati va mazmunining davlat ta'lim standartlari(talablari), akkreditatsiya mezonlari va ta'lim dasturlariga muvofiqligi hamda ko'rsatilayotgan ta'lim xizmatlarining sifati va samaradorligini baholash;

ta'lim sifatini oshirish va ta'lim xizmatlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar berish hamda tashqi baholash natijalari yuzasidan hisobotni tayyorlash va Akkreditatsiya komissiyasiga taqdim etish.

35. Ta'lim dasturi maxsus davlat akkreditatsiyasidan ekspert komissiyasi tomonidan joyiga chiqqan holda, besh ish kunidan oshmagan muddatda o'tkaziladi.

36. Ta'lim tashkiloti kompleks davlat akkreditatsiyasidan ekspert komissiyasi tomonidan joyiga chiqqan holda quyidagi muddatlarda o'tkaziladi:

o'rta maxsus va kasbiy ta'lim tashkilotlarida, shuningdek, oliy ta'limdan keyingi ta'lim hamda kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi tashkilotlarda — besh ish kunidan oshmagan muddatda;

oliy ta'lim tashkilotlarida — o'n ish kunidan oshmagan muddatda.

Ish hajmidan kelib chiqib, o'rganish muddatlari Agentlik tomonidan uzaytirilishi mumkin.

37. Ekspert komissiyasi tomonidan tashqi baholash natijalari asosida o'n besh ish kuni ichida dastlabki hisobot tayyorlanadi va Agentlik orqali ta'lim tashkilotiga taqdim qilinadi.

38. Ta'lim tashkiloti dastlabki hisobot bo'yicha asoslantirilgan taklif va e'tirozlarini Agentlikka uch ish kuni ichida rasman taqdim etadi.

Bunda taqdim etilgan taklif va e'tirozlar asosida uch ish kunida ekspert komissiyasi tomonidan yakuniy hisobot tayyorlanadi.

39. Ekspert komissiyasi tomonidan maxsus davlat akkreditatsiyasida har bir ta'lim dasturi bo'yicha alohida, kompleks davlat akkreditatsiyasida ta'lim tashkiloti bo'yicha hisobot tayyorlanadi.

40. Ekspert komissiyasi ta'lim tashkiloti bilan birgalikda ta'lim tashkiloti faoliyatida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan ta'lim sifatini oshirish chora-tadbirlari rejasini ishlab chiqadi.

41. Ta'lim tashkiloti tomonidan taqdim qilingan ichki baholash hisoboti asosida ekspert komissiyasi joyiga chiqmasdan, masofaviy shaklda tashqi baholashni amalga oshirishi mumkin.

42. Tashqi baholash mezonlari majburiy va umumiy mezonlarga bo'linadi hamda har bir mezon "muvofiq", "qisman muvofiq" yoki "muvofiq emas" deb baholanadi.

43. Ekspert komissiyasi tomonidan ta'lim tashkiloti (dasturi) har bir baholash yo'nalishi bo'yicha baholanadi.

Har bir baholash yo'nalishi "muvofiq" yoki "muvofiq emas" deb e'tirof etiladi. Bunda har bir baholash yo'nalishi quyidagi shartlar bajarilganda "muvofiq" deb baholanadi:

majburiy mezonlarning barchasi "muvofiq" deb baholanganda;

umumiy mezonlarning ko'pi bilan ikkitasi "qisman muvofiq" deb baholanganda;

"muvofiq emas" deb baholangan mezonlar mavjud bo'lmaganda.

44. Ta'lim tashkilotlarini kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish davrida nufuzli xalqaro reyting tashkilotlarining sohaviy ro'yxatida birinchi 300 talikdan o'rin olgan yoki Agentlik reyestriga kiritilgan xalqaro akkreditatsiya tashkilotlari tomonidan xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazilgan ta'lim dasturlari tegishli mezonlar bo'yicha "muvofiq" deb baholanadi.

45. Agentlik tomonidan baholash mezonlari bo'yicha indikatorlar ishlab chiqilib, belgilangan tartibda tasdiqlanadi.

5-§. Davlat akkreditatsiyasi bo'yicha yakuniy qaror qabul qilish

46. Ekspert komissiyasi tomonidan yakuniy hisobot asosida tayyorlangan xulosani ko'rib chiqish va ta'lim tashkiloti (dasturi)ni davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish bo'yicha yakuniy qaror qabul qilish uchun Agentlikda doimiy faoliyat yurituvchi Akkreditatsiya komissiyasi tuziladi.

Akkreditatsiya komissiyasi tarkibi Agentlik direktori buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

Akkreditatsiya komissiyasi tarkibiga vazirlik, idora, tashkilot mutaxassislari, ish beruvchi va ta'lim oluvchilarning vakillari hamda xorijiy ekspertlar jalb etiladi.

Agentlik direktori Akkreditatsiya komissiyasining raisi hisoblanadi.

47. Akkreditatsiya komissiyasi ekspert komissiyasi tomonidan taqdim etilgan yakuniy hisobotni bir oy muddat ichida ko'rib chiqadi.

Akkreditatsiya komissiyasi hisobotni ko'rib chiqish jarayonida qo'shimcha asoslantiruvchi ma'lumotlarni talab etishi yoki zarur hollarda, tashqi baholash jarayonida ishtirok etgan ekspert komissiyasi a'zolarini, shuningdek, sohaga oid boshqa mutaxassislarni jalb qilishi mumkin.

48. Akkreditatsiya komissiyasi tomonidan har bir baholash yo'nalishi "muvofiq" deb e'tirof etilganda, ushbu ta'lim tashkiloti (dasturi) "davlat akkreditatsiyasidan o'tdi" deb, "muvofiq emas" deb e'tirof etilganda esa "davlat akkreditatsiyasidan o'tmadi" deb qaror qabul qilinadi.

Akkreditatsiya komissiyasi qarori bayon shaklida rasmiylashtiriladi va rais tomonidan tasdiqlanadi.

Akkreditatsiya komissiyasi yig'ilishida komissiya a'zolarining uchdan ikki qismi ishtirok etganda, uning qarori kuchga ega bo'ladi.

Davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish yakunlari bo'yicha har bir ta'lim tashkiloti uchun alohida hujjatlar yig'majildi yig'iladi va ushbu yig'majild navbatdagi davlat akkreditatsiyasi o'tkazilgunga qadar Agentlikda saqlanadi.

49. Akkreditatsiya komissiyasi ta'lim tashkilotlari faoliyatining davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari hamda ta'lim dasturlariga muvofiqligini e'tirof etish bilan birgalikda, uning maqomini ham belgilaydi.

50. Agentlikning rasmiy veb-saytida barcha uchun ochiq bo'lgan "Davlat akkreditatsiyasi reyestri" yuritiladi va unda ta'lim tashkilot (dastur)lari davlat akkreditatsiyasidan o'tgan yoki o'tmagani to'g'risida ma'lumot hamda yakuniy hisobot joylashtiriladi.

51. Ta'lim tashkiloti Ta'lim sifatini oshirish chora-tadbirlari rejasida belgilangan vazifalar ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni belgilangan muddatlarda Agentlikning rasmiy veb-saytidagi elektron platformaga kiritib boradi.

52. Ta'lim dasturi "davlat akkreditatsiyasidan o'tdi" deb e'tirof etilganda, ushbu Nizomga [3-ilovada](#) keltirilgan shakldagi maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tganligi to'g'risidagi sertifikat ta'lim tashkilotiga bir hafta muddat ichida beriladi va mazkur ta'lim dasturi bo'yicha kadrlar tayyorlashga ruxsat etiladi.

Sertifikat navbatdagi kompleks davlat akkreditatsiyasi o'tkazilgunga qadar amal qiladi.

Ta'lim dasturi "davlat akkreditatsiyasidan o'tmadi" deb e'tirof etilganda, ushbu ta'lim dasturi bo'yicha kadrlar tayyorlashga yo'l qo'yilmaydi.

53. O'quv yili boshlanganidan so'ng maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tgan ta'lim dasturlari bo'yicha ta'lim oluvchilarni qabul qilishga navbatdagi qabul jarayonlaridan boshlab ruxsat etiladi.

54. Ta'lim tashkiloti "davlat akkreditatsiyasidan o'tdi" deb e'tirof etilganda, ushbu Nizomga [4-ilovada](#) keltirilgan kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tganligi to'g'risidagi sertifikat ta'lim tashkilotiga bir hafta muddat ichida beriladi.

Sertifikatda ta'lim tashkilotining tashkiliy-huquqiy shakli, faoliyat turi, maqomi, ta'lim dasturlari va sertifikatning amal qilish muddati qayd etiladi.

55. Sertifikat blankalari namunalari qat'iy hisobda turadigan hujjatlar hisoblanadi, hisobga olish seriyasi, tartib raqami, QR-kodi va himoyalanganlik darajasiga ega bo'lib, Agentlik buyurtmasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki huzuridagi "Davlat belgisi" davlat unitar korxonasi tomonidan tayyorlanadi.

Agentlik direktori sertifikat blankalari hisobga olinishi, saqlanishi va ulardan maqsadli foydalanilishi uchun shaxsan javobgar hisoblanadi.

56. Kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tmagan ta'lim tashkilotiga aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish uchun olti oy muddat beriladi.

Aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etmagan ta'lim tashkiloti rahbariyatining lavozimida faoliyatini yuritish yoki yuritmaslik masalasi yuzasidan bo'ysunuvi bo'yicha tegishli vazirlik, idora va tashkilotga, shuningdek, nodavlat ta'lim tashkiloti muassisiga Agentlik tomonidan taqdimnoma kiritiladi.

57. Agentlik kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tmagan va belgilangan muddatlarda kamchiliklarni bartaraf etmagan davlat ta'lim tashkilotini tugatish, qayta tashkil etish yoki maqomini o'zgartirish (nodavlat ta'lim tashkilotining litsenziyasini bekor qilish) bo'yicha Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga taqdimnoma kiritadi.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bir oy muddatda taqdimnoma asosida ko'rilgan choralar bo'yicha Agentlikka axborot taqdim etadi.

58. Kompleks davlat akkreditatsiyasi natijalariga ko'ra muayyan ta'lim dasturida aniqlangan kamchiliklar belgilangan muddatda bartaraf etilmagan taqdirda, ushbu ta'lim dasturi bo'yicha o'quv faoliyatini davom ettirishga va qabulni amalga oshirishga yo'l qo'yilmaydi.

59. Ta'lim tashkiloti "davlat akkreditatsiyasidan o'tmadi" deb e'tirof etilganda quyidagilarga ruxsat berilmaydi:

ta'lim tashkilotiga oid reklama ma'lumotlarini tarqatishga;

abituriyent va talabgorlarni o'qishga qabul qilishga;

talaba (o'quvchi)lari uchun ta'lim kreditlari ajratilishiga;

bitiruvchilariga diplom (sertifikat, malaka attestati)lar berilishi yoki ularning tan olinishiga.

60. Faoliyati tugatilgan (litsenziyasi bekor qilingan) o'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'lim tashkiloti yoki yopilgan ta'lim dasturida tahsil oluvchilar o'qishini davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarining mos va turdosh ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklariga ko'chirish belgilangan tartibda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan tegishli vazirlik va idoralar bilan birgalikda amalga oshiriladi.

61. Litsenziyasi bekor qilingan ta'lim tashkilotining hisobvarag'idagi zaxira mablag'lari hisobidan talaba (o'quvchi)larning o'qishini davom ettirish yoki ettirmaslik bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlar qoplanadi.

62. O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlar bilan birgalikda tashkil etilgan ta'lim tashkilotlari hamda O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy davlatlarning ta'lim tashkilotlari filiallarining ta'lim dasturlari asosiy ta'lim tashkiloti bilan birgalikda o'zining davlatida tegishli vakolatli organidan akkreditatsiyadan o'tkazilgani bo'yicha natijalari tan olinadi.

Ushbu ta'lim tashkilotlari ta'lim dasturlarining akkreditatsiyadan o'tganligi to'g'risidagi yoki unga tenglashtirilgan hujjatni olganidan so'ng, uning nusxasini ikki hafta muddatda Agentlikka taqdim etishi lozim.

Ta'lim tashkiloti (dasturi)ning akkreditatsiyadan o'tmagani yoki davlat akkreditatsiyasi talablariga muvofiq emasligi aniqlanganda, Agentlik tomonidan navbatdan tashqari davlat akkreditatsiyasiga jalb etiladi.

63. O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlar bilan birgalikda tashkil etilgan ta'lim tashkilotlari, O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy davlatlarning ta'lim tashkilotlari filiallari, shuningdek, xorijiy davlatlar bilan birgalikda tashkil etilgan xalqaro, qo'shma va "Franshiza" ta'lim dasturlari bo'yicha ta'lim tashkiloti o'z murojaatiga ko'ra Agentlik tomonidan ushbu Nizom talablari asosida davlat akkreditatsiyasidan o'tkaziladi.

3-bob. Apellyatsiya komissiyasi faoliyatini tashkil etish tartibi

64. Agentlik direktorining buyrug'i bilan ta'lim tashkilotlarining ariza (shikoyat)larini ko'rib chiqish uchun Apellyatsiya komissiyasi hamda uning ishlash tartibi tasdiqlanadi.

Apellyatsiya komissiyasi 5 — 7 nafardan iborat tarkibda tuziladi.

Apellyatsiya komissiyasi tarkibiga Akkreditatsiya komissiyasi a'zolari kiritilmaydi.

Apellyatsiya komissiyasi ariza (shikoyat)larni ko'rib chiqish jarayoniga malakali mutaxassislarni jalb etishi mumkin.

Apellyatsiya komissiyasi yig'ilishida komissiya a'zolarining uchdan ikki qismi ishtirok etganda, uning qarori kuchga ega bo'ladi.

65. Akkreditatsiya xulosasidan norozi bo'lgan ta'lim tashkiloti rahbari Akkreditatsiya xulosasini olgan kundan boshlab uch ish kuni ichida Apellyatsiya komissiyasiga akkreditatsiya platformasi orqali elektron shaklda ariza (shikoyat) bilan murojaat qiladi.

66. Ariza (shikoyat) murojaat qilingan kundan boshlab o'n ish kuni ichida Apellyatsiya komissiyasi tomonidan ko'rib chiqiladi.

Ariza (shikoyati)ni ko'rib chiqish vaqti Agentlikning rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

67. Apellyatsiya komissiyasi ariza (shikoyati)ni ko'rib chiqib, Akkreditatsiya komissiyasi qarorini o'zgartirishsiz qoldirish yoki o'zgartirish to'g'risida qaror qabul qiladi.

Apellyatsiya komissiyasi qarorining nusxasi murojaat etuvchi ta'lim tashkilotiga Apellyatsiya komissiyasi qarori chiqqan kundan e'tiboran uch ish kuni ichida taqdim etiladi.

Apellyatsiya komissiyasi Akkreditatsiya komissiyasi qarorini o'zgartirish to'g'risida qaror qabul qilganda, Akkreditatsiya komissiyasi navbatdagi yig'ilishida o'zining qaroriga tegishli o'zgartirish kiritib, yakuniy qaror qabul qiladi va ta'lim tashkiloti rahbariga besh ish kuni ichida davlat akkreditatsiyasidan o'tganlik to'g'risidagi sertifikat taqdim etiladi.

68. Ta'lim tashkiloti rahbari yoki muassisi Apellyatsiya komissiyasi qaroridan norozi bo'lsa, belgilangan tartibda sudga murojaat qilishi mumkin.

4-bob. Davlat akkreditatsiyasi natijalarining monitoringi va xavfni tahlil qilish

69. Agentlik ta'lim sifatini oshirish chora-tadbirlari rejasida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan ta'lim tashkilotida monitoring jarayonlarini amalga oshiradi.

70. Monitoring natijasida ta'lim tashkiloti tomonidan ta'lim to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari buzilgan yoki amalga oshirilayotgan ta'lim xizmatlari davlat akkreditatsiyasi talablariga mos kelmasligi holatlari aniqlangan taqdirda, ishning hajmidan kelib chiqib, ta'lim tashkilotiga kamchiliklarni bartaraf etish uchun uch oygacha muddat beriladi.

71. Agentlik ta'lim sifati barqarorligini ta'minlash, boshqaruvni yaxshilash va ehtimoliy xavflarni bartaraf etish maqsadida ta'lim tashkilotlarida xavfni tahlil qilish asosida navbatdan tashqari o'rganish o'tkazadi.

Quyidagilar xavfni tahlil qilish uchun asos hisoblanadi:

ta'lim sifati bo'yicha qonunchilik talablarining buzilishi holatlari yuzasidan murojaatlar;

so'rovnomalar asosida aniqlangan kamchiliklar;

ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlardagi ta'lim sifati bo'yicha materiallar;

ta'lim sifatiga oid boshqa ishonchli ma'lumotlar.

72. Navbatdan tashqari o'rganish ta'lim tashkilotiga tashrif buyurish, tegishli ma'lumotlarni so'rash yoki onlayn so'rovnomalar asosida tashkil etiladi.

73. Xavfni tahlil qilish va monitoring orqali o'rganish natijasida kamchiliklar aniqlanganda, Agentlik ta'lim tashkilotiga taqdimnoma kiritadi hamda kamchiliklarni bartaraf etish uchun muddat belgilaydi.

74. Davlat akkreditatsiyasi va xavfni tahlil qilish natijasi bo'yicha Agentlik taqdimnomasida ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etish ta'lim tashkilotlari uchun majburiy hisoblanadi.

75. Kamchiliklarni belgilangan muddatda bartaraf etmagan ta'lim tashkilotining davlat akkreditatsiyasidan o'tganlik to'g'risidagi sertifikati Agentlik tomonidan bekor qilinadi hamda bu haqida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi xabardor qilinadi.

5-bob. Ta'lim tashkilotlarini davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish bo'yicha yig'imler

76. Davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishda arizani ko'rib chiqish va davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish uchun yig'imler miqdorlari va tartibi ta'lim dasturlari, talaba (o'quvchi)lar, pedagog kadrlar

va ekspertlar soni hamda ta'lim dasturlarining xususiyatidan kelib chiqib, Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishgan holda Agentlik direktorining buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

77. Davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish uchun amalga oshirilgan barcha yig'imlar, akkreditatsiya natijasidan qat'i nazar, ta'lim tashkilotiga qaytarilmaydi.

78. Davlat akkreditatsiyasi bilan bog'liq xarajatlar ta'lim tashkilotlarining budjet va budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi.

79. Ta'lim tashkilotlarini davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish bilan bog'liq yig'imlar Agentlikning budjetdan tashqari hisobvarag'iga o'tkaziladi va davlat akkreditatsiyasi bilan bog'liq xarajatlar (ekspertlar mehnatiga haq to'lash, ta'lim tashkilotlari va ekspertlar uchun treninglar, xizmat safari xarajatlari, xalqaro ekspertlar va stajirovkalar, xalqaro a'zolik badallari, sertifikatlar va boshqalar), shuningdek, qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa maqsadlarga yo'naltiriladi.

6-bob. Akkreditatsiya tashkilotlariga qo'yiladigan talablar

80. Agentlik O'zbekiston Respublikasida tan olinadigan xalqaro, xorijiy va nodavlat akkreditatsiya tashkilotlari reyestrini (keyingi o'rinlarda — Reyestr) yuritadi.

81. Akkreditatsiya tashkilotlarini ro'yxatga olish quyidagi bosqichlardan iborat:

O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritish uchun Agentlikka ariza taqdim etish;

Agentlik tomonidan akkreditatsiya tashkiloti faoliyatini o'rganish va natijalar asosida Reyestrda kiritish bo'yicha qaror qabul qilish hamda reyestrni tasdiqlash.

Reyestrda kiritilgan akkreditatsiya tashkilotlari faoliyati besh yil muddatga amal qiladi.

82. Reyestrda kiritishning asosiy shartlari quyidagilardan iborat:

akkreditatsiya tashkiloti sifatida faoliyat yuritishi uchun tegishli vakolat (hujjat)ga ega bo'lishi;

akkreditatsiya tashkilotining xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish talablari, baholash mezonlari va o'tkazish tartiblari O'zbekiston Respublikasining davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish talablari, baholash mezonlari va o'tkazish tartiblariga zid bo'lmasligi;

ta'lim sifatini ta'minlash tarmoqlarining to'la huquqli a'zosi bo'lishi;

nufuzli xalqaro reytinglarning TOP-300 talik ro'yxatida bo'lgan kamida 5 ta oliy ta'lim tashkilotining ta'lim dasturlarini xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazgan bo'lishi;

umumiy ekspertlarining kamida 30 foizi xorijiy ekspert bo'lishi (xalqaro va xorijiy akkreditatsiya tashkilotlari uchun);

Akkreditatsiya tashkiloti O'zbekiston Respublikasining huquqiy va ma'naviy asoslariga mutanosib bo'lishi, milliy qadriyatlar va ijtimoiy-siyosiy hayotiga qarshi bo'lmasligi;

o'zining rasmiy veb-saytida xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazgan ta'lim tashkilotlari to'g'risida ma'lumotlarning mavjudligi.

83. Respublika hududida nodavlat akkreditatsiya tashkilotlarini tashkil etishga ruxsat berish va ularning faoliyatini yo'lga qo'yish tartibi Agentlik tomonidan belgilanadi.

84. Agentlik Reyestrda kiritilgan akkreditatsiya tashkilotlari faoliyatini har uch yilda bir marotaba monitoringdan o'tkazadi.

Monitoringdan o'tkazish tartibi Agentlik tomonidan belgilanadi.

85. Akkreditatsiya tashkiloti yoki uning xodimlari muassisligida tashkil etilgan yoxud akkreditatsiya tashkiloti xodimi har qanday shartnoma asosida faoliyat yuritadigan ta'lim tashkilotlarining mazkur akkreditatsiya tashkiloti tomonidan xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazilishiga yo'l qo'yilmaydi.

86. Akkreditatsiya tashkiloti ta'lim dasturlarini tashqi baholash to'g'risidagi hisoboti va akkreditatsiya qarorining bir nusxasini xalqaro akkreditatsiya jarayonlari yakunlangandan so'ng ikki hafta muddatda Agentlikka taqdim etishi shart.

87. Akkreditatsiya tashkilotining tashqi baholash bo'yicha hisoboti noto'g'ri yoki qalbaki hujjatlar asosida shakllantirilgani aniqlansa, uning natijasi tan olinmaydi va akkreditatsiya tashkilotini Reyestrda chiqarish uchun asos bo'ladi.

88. Akkreditatsiya tashkilotlari ta'lim tashkilotlarining ta'lim dasturlarini xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish jarayonlarida kuzatuvchi sifatida Agentlik vakillari ham ishtirok etishlari mumkin.

89. Ta'lim dasturlarining xalqaro akkreditatsiyadan o'tganligi ularning bitiruvchilariga davlat namunasidagi ta'lim to'g'risidagi hujjat berilishiga asos bo'lmaydi.

7-bob. Yakunlovchi qoidalar

90. Faoliyat olib borayotgan ta'lim tashkilot(lar)i qayta tashkil etilgan va (yoki) bir (bir nechta) ta'lim tashkiloti negizida tashkil etilganda, mazkur ta'lim tashkiloti tashkil etilgan kundan e'tiboran ikki yil muddat ichida kompleks va (yoki) maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkaziladi.

91. Agentlikka, zarur hollarda, ta'lim tashkilot (dastur)larini kompleks va maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishning baholash yo'nalishlari va mezonlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish huquqi beriladi.

92. Ushbu Nizom talablarini buzishda aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javob beradilar.

O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risidagi
nizomga
1-ILOVA

O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarining ta'lim dasturlarini maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishning

BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLARI

I. O'rta maxsus ta'lim dasturlari quyidagi mezonlarga muvofiq baholanadi:

Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi:

ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*

ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 3 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;

ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki;

mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;

amaldagi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quvchilar o'rtasida so'rovnomalar o'tkazilgani va uning natijalari asosida ta'lim dasturining takomillashtirilgani;

Ta'lim dasturlari yo'nalishi:

manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani va tasdiqlangani;*

ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*

ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligining ta'minlangani;

amaldagi ta'lim dasturlarining tizimli ravishda monitoringi yuritilgani hamda uning samaradorligini oshirish va takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilgani;*

O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi:

ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*

o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*

o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;

amaldagi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarning qo'llanilgani va tegishli samaradorlikka erishilgani;

ta'lim dasturi doirasida o'quvchilar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;

o'quvchilarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;

O'quvchilar faoliyati yo'nalishi:

ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;

qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*

o'quvchilarning o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishni qayta tiklash tartibining belgilangani;*

o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;

Inson resurslari yo'nalishi:

ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*

amaldagi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlangani;*

yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*

kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;

Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi:

ta'lim tashkilotidagi o'quv va laboratoriya xonalari ta'lim dasturiga mosligi, o'quv xonalarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlangani;*

ta'lim dasturini amalga oshirish uchun yetarli miqdorda moddiy-texnik baza, jihozlar, asbob-uskunalar va reaktiv moddalar hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*

fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*

o'quv va laboratoriya xonalarining ta'lim dasturlariga mosligi, xavfsizlik qoidalari va o'quvchilar sonidan kelib chiqib jihozlangani;*

inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;

axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*

raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);

ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.

II. Kasbiy ta'lim dasturlari quyidagi mezonlarga muvofiq baholanadi:

Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi:

ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*

ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 3 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;

ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;

mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;

amaldagi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quvchilar o'rtasida so'rovnomalar o'tkazilgani va uning natijalari asosida ta'lim dasturlarining takomillashtirilgani;

Ta'lim dasturlari yo'nalishi:

manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*

ta'lim dasturining mazmuni va strukturasi nazariya hamda amaliyot bilan mutanosib ravishda uyg'unlashtirilgani;

ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;

amaldagi ta'lim dasturlarining tizimli ravishda monitoringi yuritilgani hamda uning samaradorligini oshirish va takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilgani;*

O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi:

ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*

o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*

o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;

amaldagi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarning qo'llanilgani va tegishli samaradorlikka erishilgani;

ta'lim dasturi doirasida o'quvchilar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;

o'quvchilarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;

O'quvchilar faoliyati yo'nalishi:

ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;

qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*

o'quvchilar o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishni qayta tiklash tartibining belgilangani;*

norasmiy va orttirilgan ko'nikma va malakalarni tan olish tartibining belgilangani;

o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;

Inson resurslari yo'nalishi:

ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*

amaldagi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlangani;*

yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*

kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;

Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi:

ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*

fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*

o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning o'quvchilar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*

inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;

axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*

raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);

ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.

III. Oliy ta'lim dasturlari quyidagi mezonlarga muvofiq baholanadi:

Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi:

ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*

ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;

ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;

mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;

amaldagi ta'lim dasturlari bo'yicha talabalar o'rtasida so'rovnomalar o'tkazilgani va uning natijalari asosida ta'lim dasturlarining takomillashtirilgani;

Ta'lim dasturlari yo'nalishi:

manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*

ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;

ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;

amaldagi ta'lim dasturlarining tizimli ravishda monitoringi yuritilgani hamda uning samaradorligini oshirish va takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilgani;*

O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi:

ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*

o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*

o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;

amaldagi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarning qo'llanilgani va tegishli samaradorlikka erishilgani;

ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;

talabalar baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;

ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*

Talabalar faoliyati yo'nalishi:

ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;

qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*

talabalarning o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*

talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;

Inson resurslari yo'nalishi:

ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*

amaldagi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlangani;*

yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*

kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;

Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi:

ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*

fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*

o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*

inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;

axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*

raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);

ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.

IV. Oliy ta'limdan keyingi ta'lim dasturlari quyidagi mezonlarga muvofiq baholanadi:

Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi:

ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*

ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 3 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;

ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki;

mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;

ta'lim dasturining samaradorligini monitoring qilish va takomillashtirish mexanizmlarining joriy etilgani;

Ta'lim dasturlari yo'nalishi:

manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim talabi va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*

ta'lim dasturini rivojlantirish bo'yicha yillik ustuvor yo'nalishlar ishlab chiqilgani, asosiy faoliyat samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI), zarur resurslar va mas'ullar bilan ta'minlangani;

qabul parametrlari ta'lim tashkilotining tadqiqot va ilmiy rahbarlik salohiyati, jamiyatlardagi ilmiy va ijtimoiy ehtiyojlar, mehnat bozori tahlili asosida shakllantirilgani;*

ta'lim dasturi ilmiy-tadqiqot rejasida belgilangan davomiylik muddatida kutilayotgan tadqiqot natijalariga erishilishini ta'minlashga qaratilgani;

amaldagi ta'lim dasturlarining tizimli ravishda monitoringi yuritilgani hamda uning samaradorligini oshirish va takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilgani;*

ta'lim dasturining mazmunida o'qish jarayoni davomida tadqiqot faoliyatining ko'zda tutilgani va izlanuvchilarni tadqiqot faoliyatiga tayyorlashga yo'naltirilgani;

Tadqiqot jarayonini tashkil etish va tadqiqot natijalarini baholash yo'nalishi:

ta'lim dasturida izlanuvchilar faoliyatini baholash tartibining mavjudligi va baholash usullari belgilangan tadqiqot natijalariga qay darajada erishilganini aniqlashga yo'naltirilgani;*

ta'lim dasturida akademik erkinlik va halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*

izlanuvchilarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;

Izlanuvchilar faoliyati yo'nalishi:

ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;

qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*

izlanuvchilarni o'qishga qabul qilish, o'qishdan chetlashtirish va o'qish muddatini uzaytirish tartibining belgilangani;*

izlanuvchilarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish xizmatlarining mavjudligi;

Inson resurslari yo'nalishi:

ilmiy rahbar va konsultantlarning ko'nikma, malaka va ilmiy darajalarining ixtisoslikka mosligi;*

ta'lim dasturi yetarlicha mutaxassis va ma'muriy-boshqaruv xodimlari bilan ta'minlangani, ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga javob berishi;*

ilmiy rahbar va konsultantlarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;

xorijlik ilmiy rahbar va konsultantlarni jalb qilish imkoniyatlarining mavjudligi;

Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi:

ixtisoslik xususiyatidan va izlanuvchilar sonidan kelib chiqib, tadqiqot sohasi bo'yicha ilmiy manbalarning mavjudligi va elektron resurslar bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*

mahalliy hamda xalqaro axborot va ma'lumotlar bazasidan (Scopus, Web of Science yoki boshqa umume'tirof etilgan indeksatsiyalangan ma'lumotlar bazalari jurnallari) foydalanish imkoniyatlarining yaratilgani;

ilmiy-eksperimental laboratoriyalar bilan ta'minlanganlik darajasi, ularning zamonaviy asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalar bilan ta'minlangani va ulardan foydalanilishi holati;

inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani.

V. Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish ta'lim dasturlari quyidagi mezonlarga muvofiq baholanadi:

Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi:

ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*

ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 3 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;

ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki;

mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;

Ta'lim dasturlari yo'nalishi:

manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim talabi va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*

ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro standartlar asosida ishlab chiqilgani;

ta'lim dasturining davomiyligi, modullarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;

ta'lim mazmunining zamonaviy andragogik yondashuvlarga mosligi, modullar muammoli keyslar asosida shakllantirilgani;

amaldagi ta'lim dasturlarining tizimli ravishda monitoringi yuritilgani hamda uning samaradorligini oshirish va takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilgani;*

O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi:

o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani va malaka oshirishning muqobil shakllarining yo'lga qo'yilgani;*

o'quv jarayonining to'g'ri tashkil etilgani, uning doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;

amaldagi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarning qo'llanilgani va tegishli samaradorlikka erishilgani;

tinglovchilarning kirish va chiqish testlari, baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;

ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;

Tinglovchilar faoliyati yo'nalishi:

ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;

malaka oshirish reja-grafigi ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi hamda ta'lim dasturlarini samarali amalga oshirish uchun yetarliligi;*

tinglovchilarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;

Inson resurslari yo'nalishi:

ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar-mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*

amaldagi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi modullarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlangani;*

yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi modullarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*

amaliyotchi hamda xorijiy mutaxassislarni jalb qilish imkoniyatlarining mavjudligi;

kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;

xorijda malaka oshirgan professor-o'qituvchilarning o'quv jarayoniga jalb qilingani;

Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi:

ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*

modullar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*

o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning tinglovchilar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*

inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;

axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*

raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);

Izoh. *Majburiy bo'lgan mezonlar.

O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risidagi
nizomga
2-ILOVA

O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishning

BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLARI

I. O'rta maxsus ta'lim tashkilotlari quyidagi mezonlarga muvofiq baholanadi:

Tashkiliy-boshqaruv faoliyati yo'nalishi:

ta'lim tashkiloti faoliyatini samarali tashkil etish va rejalashtirish, ta'lim sifatini ta'minlash uchun moliyaviy resurslarning maqsadli yo'naltirilgani;

ta'lim tashkilotida Pedagogik kengash faoliyati yo'lga qo'yilgani va uning samaradorligi;*

ta'lim tashkilotini rivojlantirish rejasining ishlab chiqilgani va uni amalga oshirish uchun resurslar mavjudligi, shuningdek, uning jamoatchilik uchun ochiqligi va monitoringi yuritilgani;*

ta'lim jarayonlarini boshqarish hamda ta'lim sifatini nazorat qilish bo'yicha axborot tizimining mavjudligi va ushbu tizimning ta'lim sohasidagi vakolatli davlat organlarining axborot tizimlariga integratsiya qilingani;

Ta'lim sifatini ta'minlash yo'nalishi:

manfaatdor tomonlar bilan hamkorlikda ta'lim sifatini ichki ta'minlashning yo'lga qo'yilgani;*

ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimi samaradorligi muntazam tahlil qilib borilgani va tahlil natijalari asosida takomillashtirish choralarining ko'rilgani;*

o'quvchilar bilimini baholashning belgilangan tartibda amalga oshirilgani va uning o'quv natijalariga muvofiqligi;

bitiruvchilar bandligi monitoringi yuritilgani va manfaatdor tomonlarning bitiruvchilarga oid fikr-mulohazalari muntazam ravishda tahlil qilingani;

O'quvchilar faoliyati yo'nalishi:

qabul parametrlarining ta'lim tashkiloti resurslari va imkoniyatlariga mosligi;*

o'quvchilarni o'qishga qabul qilish belgilangan tartib-qoidalar asosida to'g'ri tashkil qilingani hamda shaffof va adolatli amalga oshirilgani;*

o'quvchilar o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish va o'qishdan chetlashtirish jarayonlarining belgilangan tartibda amalga oshirilgani;*

o'quvchilarni kasbga yo'naltirish ishlari tashkil etilgani, ularning mehnat bozoridagi va ta'limning keyingi bosqichi bo'yicha mavjud imkoniyatlar to'g'risidagi ishonchli axborotlar bilan ta'minlangani;

o'quvchilarning respublika va xalqaro fan olimpiadalari, tanlovlar, musobaqalarda ishtirok etgani hamda ularda sovrindor bo'lgan o'quvchilarning rag'batlantirilgani;

bitiruvchilarning oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirgani;

O'quv jarayonini tashkil etish yo'nalishi:

o'quv jarayonini rejalashtirish hujjatlarini ishlab chiqilgani va belgilangan tartibda tasdiqlangani;*

pedagoglarning o'quv-meyoriy hujjatlari belgilangan talab asosida ishlab chiqilgani va yuritilishi;*

pedagoglarga o'quv yuklamalarining belgilangan normalarga muvofiq ajratilgani;

o'quv jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalar qo'llanilgani va tegishli samaradorlikka erishilgani;

ta'lim tashkilotida dars tahlillarining olib borilgani va natijalarining muhokama qilingani;

Inson resurslari yo'nalishi:

ta'lim tashkilotida pedagog kadrlarning ma'lumoti, mutaxassisligi (ixtisosligi) dars o'tadigan fan(lar)ga mosligi va sifat tarkibi;*

ta'lim tashkilotiga pedagog kadrlarning belgilangan tartibda ishga qabul qilish va ishdan bo'shatish to'g'ri tashkil qilingani hamda kadrlar qo'nimsizligining oldini olish bo'yicha tegishli choralar ko'rilgani;

rahbar va pedagog kadrlar faoliyati samaradorligini baholash tizimining yo'lga qo'yilgani hamda ularning moddiy va ma'naviy rag'batlantirilgani;

pedagog kadrlarni kasbiy rivojlantirish, tajribasini ommalashtirish va malaka oshirishi uchun sharoit yaratilgani;

o'quv jarayonlariga oliy ta'lim tashkilotlari professor-o'qituvchilarining jalb qilingani;

O'quvchilarni qo'llab-quvvatlash yo'nalishi:

o'quvchilarning bo'sh vaqtini samarali tashkil qilish uchun to'garak mashg'ulotlarining yo'lga qo'yilgani va ularning samaradorligi;*

o'quvchilarga yetarli darajada ta'lim olish va psixologik qo'llab-quvvatlash bo'yicha maslahat berish va karyera xizmatlarining tashkil etilgani;

ta'lim xizmatlari yuzasidan o'quvchilar fikr-mulohazalarining monitoring qilinishi va uning natijalari asosida takomillashtirish choralari ko'rilgani;

ijtimoiy himoyaga muhtoj, imkoniyati cheklangan va iqtidorli o'quvchilarga shart-sharoitlar yaratish hamda ularni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining joriy etilgani;

yoshlar bilan ishlash samaradorligi, huquqbuzarliklar va jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilgani;

o'quvchilarning huquqlarini himoya qilish va shikoyatlarini ko'rib chiqish tartibining mavjudligi;

Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi:

ta'lim yo'nalishi xususiyatidan kelib chiqib o'quv jarayonini tashkil qilish uchun o'quvchilar kontingentiga mos ravishda zarur bino va inshootlar, zamonaviy moddiy-texnik baza, reagentlar va dasturiy ta'minot bilan ta'minlangani;*

axborot-resurs markazining (kutubxonaning) o'quvchilar kontingentiga mos o'quv va badiiy adabiyotlar, axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda unda o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*

inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;

barcha o'quv va laboratoriya xonalarida jihozlarning tegishli xavfsizlik qoidalari hamda o'qitish ehtiyojlarini hisobga olgan holda joylashtirilgani;

o'quv xonalarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlangani va raqamli ta'lim muhiti yaratilgani;

ta'lim tashkilotida o'quvchilar kontingentiga mos bufet/oshxona, o'rindiqlar va sport maydonlarining mavjudligi.

II. Kasbiy ta'lim tashkilotlari quyidagi mezonlarga muvofiq baholanadi:

Tashkiliy-boshqaruv faoliyati yo'nalishi:

ta'lim tashkiloti faoliyatini samarali tashkil etish va rejalashtirish, ta'lim sifatini ta'minlash uchun moliyaviy resurslarning maqsadli yo'naltirilgani;

ta'lim tashkilotining Pedagogik (Vasiylik) kengashi faoliyati va uning samaradorligi;*

ta'lim tashkilotini rivojlantirish rejasining ishlab chiqilgani va uni amalga oshirish uchun resurslar mavjudligi, shuningdek, uning jamoatchilik uchun ochiqligi va monitoringi yuritilgani;*

ta'lim jarayonlarini boshqarish hamda ta'lim sifatini nazorat qilish bo'yicha axborot tizimining mavjudligi va ushbu tizimning ta'lim sohasidagi vakolatli davlat organlarining axborot tizimlariga integratsiya qilingani;

Ta'lim sifatini ta'minlash yo'nalishi:

manfaatdor tomonlar bilan hamkorlikda ta'lim sifatini ichki ta'minlashning yo'lga qo'yilgani;*

ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimi samaradorligi muntazam tahlil qilib borilgani va tahlil natijalari asosida takomillashtirish choralarining ko'rilgani;

o'quvchilar bilimni baholashning belgilangan tartibda amalga oshirilgani va uning o'quv natijalariga muvofiqligi;*

bitiruvchilar bandligi monitoringi yuritilgani va ish beruvchilarning bitiruvchilarga oid fikr-mulohazalari muntazam ravishda tahlil qilingani;

O'quvchilar faoliyati yo'nalishi:

qabul parametrlarining ta'lim tashkiloti resurslari va imkoniyatlariga mosligi;*

o'quvchilarni o'qishga qabul qilish belgilangan tartib-qoidalar asosida to'g'ri tashkil qilingani hamda shaffof va adolatli amalga oshirilgani;*

o'quvchilar o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishni qayta tiklash jarayonlarining belgilangan tartiblar asosida amalga oshirilgani;*

o'quvchilarning respublika va xalqaro olimpiadalar, tanlovlar, musobaqalarda ishtirok etgani va ularda sovrindor bo'lgan o'quvchilarning rag'batlantirilgani;

o'quvchilarni kasbga yo'naltirish ishlari tashkil etilgani, ularning mehnat bozoridagi va ta'limning keyingi bosqichi bo'yicha mavjud imkoniyatlar to'g'risidagi ishonchli axborotlar bilan ta'minlangani;

O'quv jarayonini tashkil etish yo'nalishi:

o'quv jarayonini rejalashtirish hujjatlarining ishlab chiqilgani va belgilangan tartibda tasdiqlangani;*

pedagoglarga o'quv yuklamalarining belgilangan normalarga muvofiq ajratilgani;

pedagoglarning o'quv-me'yoriy hujjatlari belgilangan talab asosida ishlab chiqilgani va yuritilishi;*

o'quv jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarning qo'llanilgani va tegishli samaradorlikka erishilgani;

ta'lim tashkilotida dars tahlillarining olib borilgani va natijalarining muhokama qilingani;

ta'lim shakllariga mos ravishda tegishli amaliyotlar ish beruvchi korxonalar va tashkilotlar bilan hamkorlikda tashkil etilgani;

yakuniy davlat attestatsiyasi ish beruvchilar ishtirokida o'quv natijalariga muvofiq o'tkazilgani;

Inson resurslari yo'nalishi:

ta'lim tashkilotida pedagog kadrlarning ma'lumoti, mutaxassisligi (ixtisosligi) dars o'tadigan fan(lar)ga mosligi;*

ta'lim tashkilotiga pedagog kadrlarni belgilangan tartibda ishga qabul qilish va ishdan bo'shatish to'g'ri tashkil qilingani hamda kadrlar qo'nimsizligining oldini olish bo'yicha tegishli choralar ko'rilgani;

rahbar va pedagog kadrlar faoliyati samaradorligini baholash tizimining yo'lga qo'yilgani hamda ularning moddiy va ma'naviy rag'batlantirilgani;

pedagog kadrlarni kasbiy rivojlantirish, tajribasini ommalashtirish va malakasini oshirish uchun sharoit yaratilgani;

O'quvchilarni qo'llab-quvvatlash yo'nalishi:

o'quvchilarning bo'sh vaqtini samarali tashkil qilish uchun to'garak mashg'ulotlarining yo'lga qo'yilgani va ularning samaradorligi;*

o'quvchilarga yetarli darajada ta'lim olish va psixologik qo'llab-quvvatlash bo'yicha maslahat berish va karyera xizmatlarini tashkil etilgani;

ta'lim xizmatlari yuzasidan o'quvchilar fikr-mulohazalarining monitoring qilinishi va uning natijalari asosida takomillashtirish choralari ko'rilgani;

ijtimoiy himoyaga muhtoj, imkoniyati cheklangan va iqtidorli o'quvchilarga shart-sharoitlar yaratish hamda ularni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining joriy etilgani;

yoshlar bilan ishlash samaradorligi, huquqbuzarliklar va jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilgani;

o'quvchilarning huquqlarini himoya qilish va shikoyatlarni ko'rib chiqish tartibining mavjudligi;

Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi:

ta'lim dasturi/shakllari xususiyatidan kelib chiqib, o'quv jarayonini tashkil qilish uchun o'quvchilar kontingentiga mos ravishda zarur bino va inshootlar, zamonaviy moddiy-texnik baza, reagentlar, xomashyo materiallari va dasturiy ta'minot bilan ta'minlangani;*

ta'lim jarayonlari uchun zarur bo'lgan amaliyot bazalari, laboratoriyalari va ustaxona (poligon)lari mavjudligi yoki sanoat hamkorlari va boshqa ta'lim tashkilotlari bazalaridan foydalanish yo'lga qo'yilgani;

axborot-resurs markazining (kutubxonaning) o'quvchilar kontingentiga mos o'quv va badiiy adabiyotlar, axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda unda o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*

inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;

o'quv va laboratoriya xonalarida hamda ustaxonalarda jihozlarning tegishli xavfsizlik qoidalari hamda o'qitish ehtiyojlarini hisobga olgan holda joylashtirilgani;

o'quv xonalarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlangani va ularda raqamli ta'lim muhiti yaratilgani;

ta'lim tashkilotida o'quvchilar kontingentiga mos bufet/oshxona, o'rindiqlar va sport maydonlarining mavjudligi.

III. Oliy ta'lim tashkilotlari quyidagi mezonlarga muvofiq baholanadi:

Tashkiliy-boshqaruv faoliyati yo'nalishi:

ta'lim tashkilotida Boshqaruv (Kuzatuv, Vasiylik) kengashining tashkil etilgani va uning faoliyati samaradorligi;*

ta'lim tashkiloti faoliyatini samarali tashkil etish va rejalashtirish, ta'lim sifatini ta'minlash uchun moliyaviy resurslarning maqsadli yo'naltirilgani*.

ta'lim tashkilotini rivojlantirish rejasining ishlab chiqilgani va uni amalga oshirish uchun resurslar mavjudligi, shuningdek, uning jamoatchilik uchun ochiqligi va monitoringi yuritilgani;

ta'lim tashkilotining hudud va respublikaning ijtimoiy, iqtisodiy, va madaniy sohalarini, shuningdek, birlashtirilgan ta'lim tashkilotlarini rivojlantirishga qo'shayotgan hissasi;

ta'lim jarayonlarini boshqarish hamda ta'lim sifatini nazorat qilish bo'yicha axborot tizimining mavjudligi va ushbu tizimning ta'lim sohasidagi vakolatli davlat organlarining axborot tizimlariga integratsiya qilingani;

ta'lim tashkilotida xalqaro hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yilgani;

Ta'lim sifatini ta'minlash yo'nalishi:

manfaatdor tomonlar bilan hamkorlikda ta'lim sifatini ichki ta'minlashning yo'lga qo'yilgani;*

ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimi samaradorligi muntazam tahlil qilib borilgani va tahlil natijalari asosida takomillashtirish choralari ko'rilgani;

talabalar bilimni baholashning belgilangan tartibda amalga oshirilgani va uning o'quv natijalariga muvofiqligi;

ta'lim tashkilotida akademik halollik qoidalari belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;

bitiruvchilar bandligi monitoringi yuritilgani va ish beruvchilarning bitiruvchilarga oid fikr-mulohazalari tahlil qilingani;

Talabalar faoliyati yo'nalishi:

qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mosligi;*

talabalarni o'qishga qabul qilish belgilangan tartib-qoidalar asosida to'g'ri tashkil qilingani hamda shaffof va adolatli amalga oshirilgani;*

talabalar o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishni qayta tiklash jarayonlarining belgilangan tartiblar asosida amalga oshirilgani;*

respublika va xorijiy mamlakatlardagi ta'lim tashkilotlari bilan akademik mobillikning yo'lga qo'yilgani;

ta'lim xizmatlari eksportining samarali yo'lga qo'yilgani;

O'quv jarayonini tashkil etish yo'nalishi:

o'quv jarayonini rejalashtirish hujjatlarining ishlab chiqilgani va belgilangan tartibda tasdiqlangani;*

professor-o'qituvchilarning o'quv-me'yoriy hujjatlari belgilangan talab asosida ishlab chiqilgani va yuritilishi;*

professor-o'qituvchilarga o'quv yuklamalarining belgilangan normalarga muvofiq ajratilgani;

ta'lim dasturlarining iqtisodiyot, sanoat va soha ehtiyojlaridan kelib chiqib takomillashtirilgani hamda mazmunining yangilangani;

ta'lim tashkilotida dars tahlillarining olib borilgani va natijalarining muhokama qilingani;

Inson resurslari yo'nalishi:

belgilangan talablar va me'yorlarga muvofiq ilmiy salohiyatga ega pedagog kadrlarning mavjudligi;*

ta'lim tashkilotida pedagog kadrlarning mutaxassisligi (ixtisosligi) dars o'tadigan fan(lar)ga mosligi;*

ta'lim tashkilotiga pedagog kadrlarni belgilangan tartibda ishga qabul qilish va ishdan bo'shatish to'g'ri tashkil qilingani hamda kadrlar qo'nimsizligining oldini olish bo'yicha tegishli choralar ko'rilgani;

pedagog kadrlarning belgilangan talablarga muvofiq kasbiy rivojlanishi va malakasini oshirish ishlari to'g'ri yo'lga qo'yilgani;*

pedagog kadrlarning xorijda va/yoki ishlab chiqarish korxonalarida malaka oshirishi yoki stajirovkalari tashkil etilgani;

rahbar va pedagog kadrlar faoliyati samaradorligini baholash tizimi (KPI)ning yo'lga qo'yilgani hamda u asosida xodimlarning moddiy va ma'naviy rag'batlantirilgani;

Ilmiy-tadqiqot ishlari yo'nalishi:

ta'lim tashkilotida professor-o'qituvchilarning ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishlari va xalqaro mobilligi uchun shart-sharoitlarning mavjudligi;*

ilmiy-noshirlik faoliyatida ko'chirmachilikni aniqlash bo'yicha axborot tizimining joriy etilgani hamda doimiy hisobotlarning yuritilishi;

xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy-metodik va amaliy anjumanlarning o'tkazilgani;

ilmiy-tadqiqot faoliyatini amalga oshirishda korxonalar va tashkilotlar bilan hamkorlik yo'lga qo'yilgani;

mahalliy hamda xalqaro axborot va ma'lumotlar bazasidan (Scopus, Web of Science yoki boshqa umume'tirof etilgan indeksatsiyalangan ma'lumotlar bazalari jurnallari) foydalanish imkoniyatlarining yaratilgani;*

ilmiy-tadqiqot faoliyati natijalarining muntazam monitoring qilib borilgani;

talabalarning startup loyihalari va ratsionalizatorlik g'oyalari bilan respublika va xalqaro ilmiy dasturlarda ishtiroki hamda ularning natijadorligi;

ta'lim tashkiloti talaba va professor-o'qituvchilarining ilmiy va ilmiy-texnik faoliyati natijalarining tijoratlashtirilgani;

Talabalarni qo'llab-quvvatlash yo'nalishi:

ta'lim xizmatlari yuzasidan talabalar fikr-mulohazalarining monitoring qilinishi va uning natijalari asosida takomillashtirish choralarning ko'rilgani;*

talabalarga yetarli darajada ta'lim olish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha maslahat berish hamda karyera xizmatlarining tashkil etilgani;

ijtimoiy himoyaga muhtoj, imkoniyati cheklangan va iqtidorli talabalarga shart-sharoitlar yaratish hamda ularni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining joriy etilgani;

yoshlar bilan ishlash samaradorligi, huquqbuzarliklar va jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilgani;

talabalar huquqlarini himoya qilish va shikoyatlarini ko'rib chiqish tartibining mavjudligi;

Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi:

ta'lim dasturi/shakllari xususiyatidan kelib chiqib o'quv jarayonini tashkil qilish uchun talabalar kontingentiga mos ravishda zarur bino va inshootlar, zamonaviy moddiy-texnik baza, xomashyo materiallari va dasturiy ta'minot bilan ta'minlangani;*

ta'lim jarayonlari uchun zarur bo'lgan amaliyot bazalari va laboratoriyalari mavjudligi yoki sanoat hamkorlari va boshqa ta'lim tashkilotlari bazalaridan foydalanish yo'lga qo'yilgani;

axborot-resurs markazining (kutubxonaning) talabalar kontingentiga mos o'quv va badiiy adabiyotlar, axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda unda o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*

inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;

o'quv va laboratoriya xonalarida jihozlarning tegishli xavfsizlik qoidalari hamda o'qitish ehtiyojlarini hisobga olgan holda joylashtirilgani;

o'quv xonalarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlangani va raqamli ta'lim muhiti yaratilgani;

ta'lim tashkilotida talabalar kontingentiga mos bufet/oshxona, o'rindiqlar va sport maydonlarining mavjudligi.

IV. Oliy ta'limdan keyingi ta'lim tashkilotlari quyidagi mezonlarga muvofiq baholanadi:

Tashkiliy-boshqaruv faoliyati yo'nalishi:

ta'lim tashkiloti faoliyatini samarali tashkil etish va rejalashtirish, ta'lim sifatini ta'minlash uchun moliyaviy resurslarning maqsadli yo'naltirilgani;

ilmiy kengashlar tashkil etilgani va uning faoliyati samaradorligi;*

ta'lim tashkilotini rivojlantirish rejasining ishlab chiqilgani va uni amalga oshirish uchun resurslar mavjudligi, shuningdek, uning jamoatchilik uchun ochiqligi va monitoringi yuritilgani;*

ta'lim tashkilotining hudud va respublikaning ijtimoiy, iqtisodiy, va madaniy sohalarini rivojlantirishga qo'shayotgan hissasi;

tadqiqot jarayonlarini boshqarish hamda ta'lim sifatini nazorat qilish bo'yicha ochiq axborot tizimining mavjudligi va ushbu tizimning ta'lim sohasidagi vakolatli davlat organlarining axborot tizimlariga integratsiya qilingani;

ta'lim tashkilotini xalqarolashtirish va xalqaro hamkorlik aloqalarining yo'lga qo'yilgani;

Tadqiqot sifatini ta'minlash yo'nalishi:

manfaatdor tomonlar bilan hamkorlikda tadqiqot sifatini ichki ta'minlashning yo'lga qo'yilgani;

ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimi samaradorligi muntazam tahlil qilib borilgani, izlanuvchilar faoliyati samaradorligining monitoringi yuritilgani va natijalar asosida takomillashtirish choralari ko'rilgani;

ta'lim tashkilotida akademik halollik va erkinlik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*

dissertatsiya ishi himoyasi uchun mavjud ilmiy kengashlar faoliyati, ularning tarkibiy tuzilishi, ish tartibi va qabul qilingan qarorlarining ilmiy-huquqiy asoslangani;

Tadqiqotchilar faoliyati yo'nalishi:

qabul parametrlari ilmiy-tadqiqotlar uchun mavjud mablag'lar, tadqiqot loyihalari yoki boshqa moliyalashtirish manbalari imkoniyatlarini inobatga olgan holda belgilangani;

izlanuvchilarni o'qishga qabul qilish, o'qishdan chetlashtirish va o'qish muddatini uzaytirish belgilangan tartib-qoidalar asosida to'g'ri tashkil qilingani hamda shaffof va adolatli amalga oshirilgani;*

izlanuvchilarning belgilangan talablar asosida dissertatsiya ishini tayyorlashning yakka tartibdagi rejasi, ixtisoslik bo'yicha nazariy-metodologik dasturi ishlab chiqilgani va tasdiqlangani;*

respublika va xorijiy mamlakatlardagi ilmiy tashkilotlar va ishlab chiqarish sektori bilan akademik mobillikni yo'lga qo'yilgani;

Tadqiqot jarayonini tashkil etish yo'nalishi:

ilmiy rahbarlar (konsultant) faoliyati belgilangan talab asosida ishlab chiqilgani, tasdiqlangani va yuritilishi;*

dissertatsiya mavzularining jamiyat, iqtisodiyot va sanoatdagi dolzarb muammolarning yechimiga qaratilgani, olingan ilmiy natijalarning amaliyotga joriy etilgani;

ilmiy rahbarlar (konsultant) yuklamalarining belgilangan normalariga muvofiq ajratilgani;

izlanuvchilarning ilmiy-tadqiqot natijalari asosida chop etilgan maqola, tezis va intellektual mulk huquqini himoya qiluvchi hujjatlarga egaligi;

ta'lim tashkilotida tadqiqotlar natijadorligi tahlillarining olib borilgani va natijalarining muhokama qilingani;

izlanuvchilar belgilangan shaxsiy ish rejalarining o'rnatilgan tartibda bajarilishi monitoring qilib borilgani;

Inson resurslari yo'nalishi:

ilmiy rahbar (konsultant)lar faoliyatining belgilangan talablarga muvofiqligi va ularning rahbarligida so'nggi uch yilda bitirgan izlanuvchilarning o'z vaqtida himoya qilganlari salmog'i;

ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan fan doktorlarining ilmiy rahbarlik (konsultantlik)ka jalb etilgani;

ilmiy rahbar (konsultant)lar tarkibining sifat ko'rsatkichlari hamda ularning ilmiy-tashkiliy faoliyati natijadorligi;*

ilmiy rahbar (konsultant)lar faoliyati samaradorligini baholash tizimining yo'lga qo'yilgani va shu asosida moddiy va ma'naviy rag'batlantirishning tashkil etilgani;

o'z vaqtida himoya qilmagan tadqiqotchilar bilan olib borilgan ishlar, nazorat tadbirlari va samaradorligi, ilmiy rahbar hamda maslahatchilarga choralar ko'rilgani;

Ilmiy-tadqiqot ishlari yo'nalishi:

xalqaro miqyosda va respublika miqyosidagi ilmiy-metodik va amaliy anjumanlar o'tkazilgani;

ilmiy-tadqiqot faoliyatini amalga oshirishda korxonalar va tashkilotlar bilan tadqiqot natijalarini tatbiq etish yo'nalishida hamkorlik yo'lga qo'yilgani;

ta'lim tashkilotining tegishli sohalarda mahalliy va xalqaro ilmiy grant tanlovlarida ishtirok etgani hamda uning natijadorligi;

mahalliy hamda xalqaro axborot va ma'lumotlar bazasidan (Scopus, Web of Science yoki boshqa umume'tirof etilgan indeksatsiyalangan ma'lumotlar bazalari jurnallari) foydalanish imkoniyatlarining yaratilgani;*

ilmiy-noshirlik faoliyatida ko'chirmachilikni aniqlash bo'yicha axborot tizimining joriy etilgani hamda doimiy hisobotlarning yuritilishi;*

Tadqiqotchilarni qo'llab-quvvatlash yo'nalishi:

ta'lim xizmatlari yuzasidan tadqiqotchilarning fikr-mulohazalarini monitoring qilinishi va uning natijalari asosida takomillashtirish choralarining ko'rilgani;

tadqiqotchilar uchun ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'yicha o'quv-metodologik treninglar tashkil etilgani;

tadqiqotchilarga yetarli darajada tadqiqot olib borish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha maslahat berish xizmatlarining tashkil etilgani;

tadqiqotchilarning huquqlarini himoya qilish va shikoyatlarini ko'rib chiqish tartibining mavjudligi;

Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi:

ilmiy-eksperimental laboratoriya va maydonlar bilan ta'minlanganlik darajasi, ularning zamonaviy asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallar va boshqalar bilan ta'minlangani va ulardan foydalanilishi holati;*

tadqiqot olib borish uchun zarur bo'lgan amaliyot bazalari va laboratoriyalari mavjudligi yoki sanoat hamkorlari va boshqa ta'lim tashkilotlari bazalaridan foydalanish yo'lga qo'yilgani;

ixtisoslik xususiyatidan va izlanuvchilar sonidan kelib chiqib tadqiqot sohasi bo'yicha ilmiy manbalarning mavjudligi va elektron resurslar bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*

inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani.

V. Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish ta'lim tashkilotlari quyidagi mezonlarga muvofiq baholanadi:

Tashkiliy-boshqaruv faoliyati yo'nalishi:

ta'lim tashkiloti faoliyatini samarali tashkil etish va rejalashtirish, ta'lim sifatini ta'minlash uchun moliyaviy resurslarning maqsadli yo'naltirilgani;

ta'lim tashkilotida Ilmiy-pedagogik kengashning tashkil etilgani va uning faoliyati samaradorligi;*

ta'lim tashkilotini rivojlantirish rejasining ishlab chiqilgani va uni amalga oshirish uchun resurslar mavjudligi, shuningdek, uning jamoatchilik uchun ochiqligi va monitoringi yuritilgani;*

ta'lim tashkilotining hudud va respublikaning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarini rivojlantirishga qo'shayotgan hissasi;

ta'lim jarayonlarini boshqarish hamda ta'lim sifatini nazorat qilish bo'yicha axborot tizimining mavjudligi va ushbu tizimning ta'lim sohasidagi vakolatli davlat organlarining axborot tizimlariga integratsiya qilingani;

ta'lim tashkilotini xalqarolashtirish va xalqaro hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yilgani;

Ta'lim sifatini ta'minlash yo'nalishi:

manfaatdor tomonlar bilan hamkorlikda ta'lim sifatini ichki ta'minlashning yo'lga qo'yilgani;*

ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimi samaradorligi muntazam tahlil qilib borilgani va tahlil natijalari asosida takomillashtirish choralarining ko'rilgani;

ichki baholash jarayoni o'tkazilgani, baholash natijalari asosida chora-tadbirlarning amalga oshirilgani;

tinglovchilar bilimini baholashning belgilangan tartibda amalga oshirilgani va uning o'quv natijalariga muvofiqligi;

ta'lim tashkilotida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;

ish beruvchilarning malaka oshirgan tinglovchilarga oid fikr-mulohazalarining tahlil qilingani;

Tinglovchilar faoliyati yo'nalishi:

qabul parametrlarining ta'lim tashkiloti resurslari va imkoniyatlariga mosligi;*

tinglovchilarni o'qishga qabul qilish belgilangan tartib-qoidalar asosida to'g'ri tashkil qilingani;

O'quv jarayonini tashkil etish yo'nalishi:

o'quv jarayonini rejalashtirish hujjatlarining ishlab chiqilgani va belgilangan tartibda tasdiqlangani;*

professor-o'qituvchilarning o'quv-me'yoriy hujjatlari belgilangan talab asosida ishlab chiqilgani, tasdiqlangani va yuritilishi;*

professor-o'qituvchilarga o'quv yuklamalarining belgilangan normalarga muvofiq ajratilgani;

ta'lim dasturlarini iqtisodiyot, sanoat va soha ehtiyojlaridan kelib chiqib, takomillashtirilgani hamda mazmunining yangilangani;

ta'lim tashkilotida dars tahlillarining olib borilgani va natijalarining muhokama qilingani;

Inson resurslari yo'nalishi:

ta'lim tashkilotida belgilangan talablar va me'yorlarga muvofiq ilmiy salohiyatga ega pedagog kadrlarning mavjudligi;*

ta'lim tashkilotida pedagog kadrlarning mutaxassisligi (ixtisosligi) va faoliyat yo'nalishlari dars o'tadigan fan(lar)ga mosligi;*

ta'lim tashkilotiga pedagog kadrlarni belgilangan tartibda ishga qabul qilish va ishdan bo'shatish to'g'ri tashkil qilingani hamda kadrlar qo'nimsizligining oldini olish bo'yicha tegishli choralar ko'rilgani;

pedagog kadrlarning xorijda va/yoki ishlab chiqarish korxonalarida malaka oshirishi yoki stajirovkalari tashkil etilgani;

xodimlar faoliyati samaradorligini baholash tizimi (KPI)ning yo'lga qo'yilgani hamda u asosida xodimlarning moddiy va ma'naviy rag'batlantirilgani;

Tinglovchilarni qo'llab-quvvatlash yo'nalishi:

ta'lim xizmatlari yuzasidan tinglovchilar fikr-mulohazalarining monitoring qilinishi va uning natijalari asosida takomillashtirish choralarning ko'rilgani;*

tinglovchilarga yetarli darajada ta'lim olish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha maslahat berish hamda karyera xizmatlarining tashkil etilgani;

ijtimoiy himoyaga muhtoj va imkoniyati cheklangan tinglovchilar uchun shart-sharoitlar yaratish hamda ularni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining joriy etilgani;

tinglovchilarning huquqlarini himoya qilish va shikoyatlarini ko'rib chiqish tartibining mavjudligi;

Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi:

ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, o'quv jarayonini tashkil qilish uchun tinglovchilar kontingentiga mos ravishda zarur bino va inshootlar, zamonaviy moddiy-texnik baza, xomashyo materiallari va dasturiy ta'minot bilan ta'minlangani;*

ta'lim jarayonlari uchun zarur bo'lgan amaliyot bazalari, ustaxonalari va laboratoriyalari mavjudligi yoki sanoat hamkorlari va boshqa ta'lim tashkilotlari bazalaridan foydalanish yo'lga qo'yilgani;

axborot-resurs markazining (kutubxonaning) zaruriy o'quv va badiiy adabiyotlar, axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda unda o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*

inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;

o'quv va laboratoriya xonalarida jihozlarning xavfsizlik qoidalari hamda o'qitish ehtiyojlarini hisobga olgan holda joylashtirilgani;

o'quv xonalarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlangani va raqamli ta'lim muhiti yaratilgani.

Izoh. *Majburiy bo'lgan mezonlar.

Kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish vaqtida ta'lim dasturlarini baholash maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishning baholash yo'nalishlari va mezonlari asosida baholanadi.

O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risidagi
nizomga
3-ILOVA

NAMUNA



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI

TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI

Maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tganlik to'g'risida**SERTIFIKAT****MAS № 0000000**

Ushbu sertifikat Akkreditatsiya komissiyasi qaroriga ko'ra _____

_____ manzilida joylashgan

(ta'lim tashkilotining yuridik manzili)

_____ ning

*(ta'lim tashkilotining nomi)**(ta'lim dasturi kodi va nomi)*

ta'lim dasturi maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tganini tasdiqlaydi.

Ushbu sertifikatga ta'lim dasturiga tegishli ma'lumotlar ilova qilinadi va ilova sertifikatning ajralmas qismi hisoblanadi.

Sertifikat berish uchun asos: Akkreditatsiya komissiyasining 20__-yil “__”-_____dagi ____-son bayoni.**Amal qilish muddati:** 20__-yil __/__/*(kun, oy)***Agentlik direktori***(F.I.O.)*Hujjatning
haqiqiyligini
tasdiqlovchi

QR-kod


Maxsus davlat akkreditatsiyasidan
o'tganlik to'g'risidagi MAS №
_____-son sertifikatga
ILOVA**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI****PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI****TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

_____ ning

(ta'lim tashkilotining nomi)

maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazilgan ta'lim dasturi to'g'risida ma'lumot

1.	Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnoma raqami va sanasi:	
2.	Ta'lim tashkilotining turi (davlat/nodavlat/ xorijiy):	
3.	Ta'lim dasturi kodi va nomi:	
4.	Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi:	
5.	Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi:	
6.	Hamkorlikda amalga oshirilishi (qo'shma, franshiza yoki boshqalar):	
7.	Ta'lim tili:	
8.	Ta'lim shakli:	
9.	Ta'lim dasturi hajmi (ECTS krediti yoki akademik soatlar miqdori):	
10.	Ta'lim dasturi davomiyligi (yillar/semestrlar):	
11.	Milliy malaka ramkasidagi darajasi:	
12.	Kvalifikatsiya(lar) nomi:	
13.	Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar:	
14.	Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi va uning namunasi:	
15.	Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori:	
16.	Ta'lim dasturini o'qitish manzili:	

Agentlik direktori_____
(F.I.O.)**Maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tganlik to'g'risida sertifikat****TAVSIFI**

Davlat namunasidagi maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tganlik to'g'risidagi sertifikat A4 formatli oq qog'ozda ofset usulida besh xil rangdan foydalangan holda: matn uchun — qora rangda, rasmlar tasviri uchun — yashil, ko'k, qizil ranglarda, fon uchun — och pushti rangda bosib chiqariladi.

Varaqning chap qismida chetidan 10 mm chekingan holda eni 32 mm bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i tasvirlangan tasma joylashtiriladi. Tasmaning yuqori qismida diametri 30 mm bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbining tasviri joylashtiriladi va sertifikat blankasining chap tomoni quyi qismida fonsiz 35x35 mm o'lchamda QR-kod qo'yiladi.

Varaqning qolgan qismida yuqorida lotin yozuvi bilan davlat tilida “O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI” va “Maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tganlik to'g'risida SERTIFIKAT” so'zlari qora rangli va MAS lotin harfi va yetti xonali sondan iborat bo'lgan raqam qizil rangli bo'yoqda bosiladi.

Barcha matn naqshli rastrdan iborat och kul rang fonda bosib chiqariladi.

Sertifikat:

bosib chiqarishning ikki usuli — ofset va yuqori usuli;

yorug'lik vositasida nusxa ko'chirishni qiyinlashtirish uchun ochiq ranglar;

naqshli rastr;

har xil rangli rastrlardan foydalanish yo'li bilan turli ranglarni tashkil etish;

maxsus qog'ozlar;

o'zgaradigan raqamlardan iborat tartib raqami qo'llangan holda oltita himoyaga ega.

O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risidagi
nizomga
4-ILOVA

NAMUNA



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI

TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI

Kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tganlik to'g'risida

SERTIFIKAT

KAS № 0000000

Ushbu sertifikat Akkreditatsiya komissiyasi qaroriga ko'ra _____

_____ manzilida joylashgan

(ta'lim tashkilotining yuridik manzili)

_____ ning davlat akkreditatsiyasi

(ta'lim tashkilotining nomi)

(ta'lim tashkilotining turi: davlat/nodavlat/xorijiy)

ga

(ta'lim tashkilotining maqomi)

mosligini tasdiqlaydi va bitiruvchilarga mazkur sertifikat ilovasiga muvofiq ta'lim dasturlari (ta'lim yo'nalishlari, mutaxassisliklar, ixtisosliklar, kasblar va kurslar) bo'yicha ta'lim to'g'risida beriladigan hujjatlarning davlat tomonidan e'tirof etilishini kafolatlaydi.

Ushbu sertifikatga tegishli ma'lumotlar ilova qilinadi va ilova sertifikatning ajralmas qismi hisoblanadi.

Sertifikat berish uchun asos: Akkreditatsiya komissiyasining 20__-yil “__”-_____dagi ____-son bayoni.

Amal qilish muddati: 20__-yil __/__/

(kun, oy)

Agentlik direktori

(F.I.O.)

Hujjatning
haqiqiylikini
tasdiqlovchi

QR-kod

Kompleks davlat akkreditatsiyasidan
o'tganlik to'g'risidagi KAS №
_____son sertifikatga
ILOVA

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI****TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**


_____ning

(ta'lim tashkilotining nomi)

kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tkazilgan ta'lim dasturlari**RO'YXATI**

T/r	Ta'lim dasturlari		Ta'lim shakli	O'qish davriyligi	Malaka darajasi
	kodi	nomi			
1.					
2.					
3.					
...					

Agentlik direktori



Kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tganlik to'g'risida sertifikat

TAVSIFI

Davlat namunasidagi kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tganlik to'g'risidagi sertifikat A4 formatli oq qog'ozda ofset usulida besh xil rangdan foydalangan holda: matn uchun — qora rangda, rasmlar tasviri uchun — yashil, ko'k, qizil ranglarda, fon uchun — och kul rangda bosib chiqariladi.

Varaqlarning chap qismida chetidan 10 mm chekingan holda eni 32 mm bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i tasvirlangan tasma joylashtiriladi. Tasmaning yuqori qismida diametri 30 mm bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbining tasviri joylashtiriladi va sertifikat blankasining chap tomoni quyi qismida fonsiz 35x35 mm o'lchamda QR-kod qo'yiladi.

Varaqlarning qolgan qismida yuqorida lotin yozuvi bilan davlat tilida "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI" va "Kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tganlik to'g'risida SERTIFIKAT" so'zlari qora rangli va KAS lotin harfi va yetti xonali sondan iborat bo'lgan raqam qizil rangli bo'yoqda bosiladi.

Barcha matn naqshli rastrdan iborat och kul rang fonda bosib chiqariladi.

Sertifikat:

bosib chiqarishning ikki usuli — ofset va yuqori usuli;

yorug'lik vositasida nusxa ko'chirishni qiyinlashtirish uchun ochiq ranglar;

naqshli rastr;

har xil rangli rastrlardan foydalanish yo'li bilan turli ranglarni tashkil etish;

maxsus qog'ozlar;

o'zgaradigan raqamlardan iborat tartib raqami qo'llangan holda oltita himoyaga ega.

Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qaroriga
2-ILOVA

Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 22-maydagi 304-son qaroriga kiritilayotgan o'zgartirishlar

1. 2-ilovada:

a) 10-bandning **ikkinchi xatboshisi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"Oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutini ochish to'g'risidagi qarorning nusxasi axborot uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligiga yuboriladi";

b) 11 va 12-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"11. Ilmiy tashkilot yoki ta'lim muassasalaridagi oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutlarini davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish qonunchilikda belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi tomonidan amalga oshiriladi.

12. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligi oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash masalalarida tasarrufida ilmiy tashkilot va ta'lim muassasalariga ega vazirlik va idoralarning faoliyatini muvofiqlashtiradi";

v) 13-bandning **ikkinchi xatboshisida**:

“Innovatsion rivojlanish vazirligiga” soʻzlari “Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligiga” soʻzlari bilan almashtirilsin;

“attestatsiyadan” soʻzi “davlat akkreditatsiyasidan” soʻzlari bilan almashtirilsin;

g) 14-bandda:

birinchi va ikkinchi xatboshilar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“14. Tizimida ilmiy va ta'lim tashkilotlari boʻlgan vazirlik va idoralar tegishli ilmiy va ta'lim tashkilotlari tomonidan qabul kvotasi boʻyicha asoslangan takliflarni har yili 10-iyungacha Yagona elektron tizim orqali Oʻzbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishish uchun Oʻzbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligiga yuborilishini ta'minlaydi.

Oʻzbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi qabul kvotasi boʻyicha asoslangan takliflarni budget parametrlari asosida koʻrib chiqib har yili 1-avgustga qadar Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligiga Yagona elektron tizim orqali yuboriladi;”.

uchinchi xatboshidagi “Innovatsion rivojlanish vazirligi” soʻzlari “Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligi” soʻzlari bilan almashtirilsin;

toʻrtinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Qabul kvotasi miqdorini ilmiy va ta'lim tashkilotlari kesimida taqsimlashda Oʻzbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligi va tizimida ilmiy va ta'lim tashkilotlari boʻlgan vazirlik va idoralar oʻrtasida kelishmovchilik yuzaga kelgan taqdirda tegishli vazirlik yoki idora tizimidagi ilmiy va ta'lim tashkilotlari uchun qabul kvotasi miqdorini belgilash Vazirlar Mahkamasining Ijtimoiy rivojlanish masalalari boʻlimining koʻrsatmasiga muvofiq amalga oshiriladi;”

beshinchi xatboshidagi “qabul kvotasini shakllantirishi” soʻzlari “qabul kvotasini davlat akkreditatsiyasi shartlari asosida shakllantirishi” soʻzlari bilan almashtirilsin;

oltinchi xatboshidagi “Innovatsion rivojlanish vazirligiga” soʻzlari “Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligiga” soʻzlari bilan almashtirilsin;

yettinchi xatboshidagi “Innovatsion rivojlanish vazirligi” soʻzlari “Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligi” soʻzlari bilan almashtirilsin;

sakkizinchi xatboshidagi “Innovatsion rivojlanish vazirligiga” soʻzlari “Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligiga” soʻzlari bilan almashtirilsin;

d) 31-bandning **birinchi xatboshisidagi** “Moliya vazirligi Oʻzbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi” soʻzlari “Iqtisodiyot va moliya vazirligi Oʻzbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligi” soʻzlari bilan almashtirilsin;

e) 35-bandning **ikkinchi xatboshisidagi** “Moliya vazirligi” soʻzlari “Iqtisodiyot va moliya vazirligi” soʻzlari bilan almashtirilsin;

j) 52-bandning **birinchi xatboshisidagi** “Innovatsion rivojlanish vazirligi” soʻzlari “Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligi” soʻzlari bilan almashtirilsin.

2. 3-ilovaning **matnida**:

a) “Vazirlar Mahkamasi” soʻzlari “Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi” soʻzlari bilan almashtirilsin;

b) “Cabinet of Ministers” soʻzlari “Ministry of Higher education, science and innovations” soʻzlari bilan almashtirilsin;

v) “The Supreme Attestation Commission of the Republic of Uzbekistan based on” soʻzlari “The Supreme Attestation Commission based on” soʻzlari bilan almashtirilsin;

g) “Oʻzbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi huzuridagi ilmiy kengashining” soʻzlari “Oliy attestatsiya komissiyasi huzuridagi ilmiy kengashining” soʻzlari bilan almashtirilsin.

3. 4-ilovaning **matnida**:

a) "Vazirlar Mahkamasi" so'zlari "Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi" so'zlari bilan almashtirilsin;

b) "Cabinet of Ministers" so'zlari "Ministry of Higher education, science and innovations" so'zlari bilan almashtirilsin;

v) "The Supreme Attestation Commission of the Republic of Uzbekistan based on" so'zlari "The Supreme Attestation Commission based on" so'zlari bilan almashtirilsin;

g) "O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi huzuridagi ilmiy kengashining" so'zlari "Oliy attestatsiya komissiyasi huzuridagi ilmiy kengashining" so'zlari bilan almashtirilsin.

4. 5-ilovaning [matnida](#):

a) "Vazirlar Mahkamasi" so'zlari "Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi" so'zlari bilan almashtirilsin;

b) "Cabinet of Ministers" so'zlari "Ministry of Higher education, science and innovations" so'zlari bilan almashtirilsin;

v) "The Supreme Attestation Commission of the Republic of Uzbekistan upon" so'zlari "The Supreme Attestation Commission upon" so'zlari bilan almashtirilsin;

g) "O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy kengashining" so'zlari "Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy kengashining" so'zlari bilan almashtirilsin.

5. 6-ilovaning [matnida](#):

a) "Vazirlar Mahkamasi" so'zlari "Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi" so'zlari bilan almashtirilsin;

b) "Cabinet of Ministers" so'zlari "Ministry of Higher education, science and innovations" so'zlari bilan almashtirilsin;

v) "The Supreme Attestation Commission of the Republic of Uzbekistan upon" so'zlari "The Supreme Attestation Commission upon" so'zlari bilan almashtirilsin;

g) "O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy kengashining" so'zlari "Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy kengashining" so'zlari bilan almashtirilsin.

6. 7-ilovaning [matnida](#):

a) "Vazirlar Mahkamasi" so'zlari "Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi" so'zlari bilan almashtirilsin;

b) "Cabinet of Ministers" so'zlari "Ministry of Higher education, science and innovations" so'zlari bilan almashtirilsin;

v) "The Supreme Attestation Commission of the Republic of Uzbekistan upon" so'zlari "The Supreme Attestation Commission upon" so'zlari bilan almashtirilsin;

g) "O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy kengashining" so'zlari "Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy kengashining" so'zlari bilan almashtirilsin.

Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 6-avgustdagi 498-son [qaroriga](#)
3-ILOVA

O'zbekiston Respublikasi Hukumatining o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblanayotgan ayrim qarorlari

RO'YXATI

1. Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" 2017-yil 18-iyuldagi 515-son [qarori](#).

2. Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning strategik vazifalari amalga oshirilishi samaradorligi uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mas'uliyatini oshirishga doir birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida" 2019-yil 28-yanvardagi PF-5644-son, "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek,

ba'zilarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida" 2019-yil 1-fevraldagi PF-5650-son farmonlari va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Hukumati ishini tashkil etishning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish to'g'risida" 2019-yil 28-yanvardagi PQ-4136-son qarori)" 2019-yil 13-maydagi 397-son qaroriga ilovaning [59-bandi](#).

3. Vazirlar Mahkamasining "Xorijiy davlatlarda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlarni tan olish tartibini takomillashtirish haqida" 2019-yil 24-iyuldagi 620-son qaroriga 2-ilovaning [2-bandi](#).

4. Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son hamda "Ta'lim sifatini nazorat qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019-yil 16-yanvardagi PQ-4119-son qarorlari)" 2019-yil 30-sentabrdagi 821-son qaroriga ilovaning [15-bandi](#).

5. Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mehnatga haq to'lash, pensiyalar va boshqa to'lovlar miqdorlarini aniqlash tartibini takomillashtirish to'g'risida" 2019-yil 21-maydagi PF-5723-son Farmoni)" 2019-yil 28-dekabrdagi 1046-son qaroriga ilovaning [171](#) va [296-bandlari](#).

6. Vazirlar Mahkamasining "Ilmiy darajali kadrlarni tayyorlash jarayonlarining shaffofligini ta'minlash va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 6-noyabrdagi 696-son qaroriga 3-ilovaning [3](#) va [4-bandlari](#).

7. Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimidagi tashkilotlarning budjetdan tashqari jamg'armalari mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 2021-yil 27-apreldagi 243-son qaroriga 2-ilovaning [11-bandi](#).

8. Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritish to'g'risida (O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" 2019-yil 16-dekabrdagi O'RQ-595-son Qonuni)" 2021-yil 20-maydagi 320-son qaroriga 1-ilovaning [26-bandi](#).

9. Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim muassasalari reytingini aniqlash chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 3-iyundagi 345-son qaroriga 3-ilovaning [23](#) va [41-bandlari](#).

10. Vazirlar Mahkamasining "Ilmiy va innovatsion faoliyatni boshqarish tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 27-avgustdagi 545-son qaroriga 3-ilovaning [28-bandi](#).

11. Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, ba'zilarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Koronavirus pandemiyasini yumshatish, aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi va salomatligini saqlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 25-iyuldagi PF-6035-son Farmoni)" 2021-yil 19-noyabrdagi 694-son qaroriga 1-ilovaning [64-bandi](#).

12. Vazirlar Mahkamasining "Aholi va tadbirkorlik subyektlarining davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlari kengaytirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, ba'zilarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida" 2021-yil 27-dekabrdagi 774-son qaroriga 1-ilovaning [51-bandi](#).

13. Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 3-oktabrdagi 559-son qarori bilan tasdiqlangan Oliy ta'lim tashkilotlarida masofaviy ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomning [20-bandi](#).

14. Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi faoliyatini tartibga solish sohasidagi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" 2024-yil 8-avgustdagi 489-son qaroriga 1-ilovaning 10-bandi [o'n to'qqizinchi](#) va [yigirmanchi xatboshilari](#), 11-bandining 12-kichik bandi [to'rtinchi xatboshisi](#) va [18-kichik bandi](#).

(Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 06.08.2025-y., 09/25/498/0698-son)



Tezkor va qulay
onlayn mikroqarz

100 mln
so'mgacha

Kredit foizi: 26%-30% gacha
Kredit muddati: 2-48 oygacha

